

**M. Qahhorov
O. Alieva
A. Boynazarov.**

Mantiq

**O'QUV QULLANMA
TULDIRILGAN 2-NASHRI**

**“FAN VA TEXNOLOGIYA” NASHRYOTI
TOSHKENT– 2011**

Qo'llanma mantiq fani bo'yicha falsafa kafedrasida ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturi bo'yicha, ma'ruza matnlari, mashqlar va test namunalari asosida tuzilgan. Ma'ruzalarga 6 soat amaliy mashg'ulotlar uchun 8 soat ajratilgan.

Muallif: falsafa fanlari doktori, professor **M. A. Qahhorov**

Taqrizchilar:

Ichki taqriz: o'qit . G'.Otajonov.

Tashqi taqriz: 2-AL o'qt A. Tursunov

Muqimiy nomidagi Qo'qon DPI Ilmiy Kengashi ma'qullagan va nashrga tavsiya qilgan.

1 mavzu: MANTIQ FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI—
(2 soat)

1. Mantiq fanining , predmeti.
2. Mantiq fanining asosiy vazifalari.
3. Mantiq fani tarixiy taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

1. Inson umumiy madaniyatining ajralmas qismi tafakkur madaniyati- dir. Fikrimiz to'g'ri, aniq—ravshan, izchil, asosli bo'lishi lozim. Aks holda undan logika (mantiq) yo'qoladi. «Ongli, bilimli odam,—degan edi Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida—har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr—o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk bo'ladi».

«Mantiq» keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish, tartib va izchillikni ifodalaydi. Tor ma'noda – fikrning tuzilishi, konkret shakllari, chin (to'g'ri) bilimga erishishning shart—sharoitlari va qonunlarini o'rganuvchi maxsus fan.

Ma'lumki, ob'ektiv olamni bilish sezgi, idrok va tasavvurdan boshlanadi. Biroq hissiy bilish narsa va hodisalarning tashqi tomonlari bilan cheklanib, ichki bog'lanish va rivojlanish qonunlarini ochib bera olmaydi. Bu vazifani tafakkur ado etadi.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib, abstraktlashtirib, tushuncha, hukm va xulosalar shaklida aks ettirib beradi. Ular o'rtasida mantiqiy qonunlar vujudga keladiki, to'g'ri fikrlash shu qonunlarga amal qilishni taqozo etadi. Logika fani mana shu qonunlar bilan shug'ullanadi, bu qonunlar yordamida vujudga kelgan bilimlar isbotlanadi yoki rad etiladi, ularning to'g'riligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, —deb yozadilar yurtboshimiz «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» nomli maqolada (2000 yil),—inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'ri beqiyos... Ularning barchasi odamning intellektual kamolatga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega». Ana shu fanlar tizimida insonni to'g'ri, mantiqli fikrlashga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan logika (mantiq) fani alohida o'rin tutadi.

Mantiq fanining predmeti—to'g'ri fikrlash qonun—qoidalari, bosh vazifasi—fikrlash madaniyatini shakllantirish ekan, avvalo, «Tafakkur madaniyati o'zi nima?» degan savolga javob berib o'tish joizdir. Bu tafakkurning oddiy shakllari, qonun-qoidalarini bilib olish va ularga rioya etish, to'g'ri, xatosiz, tushunarli, tartibli, qoidaga muvofiq fikrlash demakdir.

Tafakkur madaniyati olamni bilishga, idrok etishga yo'naltirilgan

aqliy faoliyat turi sifatida azaldan mutafakkirlar diqqatini jalb etib kelgan.

Xususan, Farobiy tafakkur madaniyatining ilmiy-nazariy va amaliy, ahamiyatini yuqori baholab, «Mantiq ilmi aqlni to'g'ri yo'lga boshlaydi va xatolardan saqlaydi» deb yozgan.

Hozirgi kunda, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, yangi jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-intellektual negizlari yaratilayotgan bir paytda tafakkur madaniyatiga jiddiy ta'sir etuvchi ijtimoiy—siyosiy va tarixiy omillar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlarda mustaqil tafakkurni shakllantirish dolzarb muammoga aylanmoqda. Bu masala yangicha yondashuvni taqozo etmoqda.

«Hayotga endigina qadam qo'yayotgan yosh qalb, yosh inson hamisha ma'naviy yetakchiga, murabbiy—ustozga muxtoj bo'ladi,—degan edi Prezident I. A. Karimov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida,—Lekin bunday xavf—xatarlarga qarshi soddadillik bilan, yuzaki tushunchalar bilan qarshi turib, kurashib bo'lmaydi. Biz kelajakni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyatni boshqarish usullarini, inson erkinliklari va xurfiyliklikni tafakkurimizga joriy qilishda ko'ramiz» («Xalq so'zi», 2001 yil 25 yanvar).

Tafakkur madaniyatini shakllantirish masalalariga yangicha yondashuv namunasini yurtboshimizning ko'plab asarlarida ko'rish mumkin. Ularda yoshlar tafakkur madaniyatini qaror toptirish yurtimizda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, xalqimiz ongi va qalbiga singdirishning uzviy qismi sifatida, mafkuraviy kurash bilan bog'liq holda teran taxlil etiladi, dasturil—amaliy xulosalar chiqariladi.

Demak, hayotga kirib kelayotgan yoshlar o'z mustaqil fikriga, tafakkur madaniyatiga ega bo'lmasa, yot, dushman g'oyalarining goh oshkora, goh pinxona ta'siriga, tazyiqlariga bardosh berishi mushkul.

Endilikda, ayniqsa, yurtboshimiz asarlarida «mustaqil-fikrlovchi erkin shaxs» iborasi tez—tez ishlatilmoqda. Xo'sh, «Mustaqil fikrlovchi erkin shaxs» deganda nima tushuniladi? Prezidentimiz ta'birlaricha bu «o'zining qadr—qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymonli, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insondir». Boshqa bir o'rinda ushbu tushunchaga yanada kengroq ta'rif beriladi: «bu—o'z aqli, tafakkuriga ega, mas'uliyatli, ongli, ozod va hur fikrli insondir».

Ana shunday kishilar uyushgan jamiyatni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan buzib bo'lmaydi. Bunday jamiyat mustahkam, adolatli, ustuvor bo'ladi. Mustaqil, erkin fikrli shaxslarni aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg'itib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz rahbari ikkinchi chaqiriq O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «Ozod va obod Vatan, erkin va

farovon hayot—pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzada mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish jamiyat hayotini atroflicha erkinlashtirishning boshlang'ich nuqtasi va pirovard natijasi bo'lmog'i kerakligini alohida uqtirganlar. Mantiq fani ana shunday ulug'vor vazifalarni hal qilishga o'z hissasini qo'shishga da'vat etilgan.

2. Tafakkurni falsafa, fiziologiya, psixologiya, kibernetika ham o'z nuqtai nazaridan o'rganadi. Grammatika ham logikaga yaqin. Tushuncha va hukmlarning strukturasi aniqlashda uning roli katta.

Insonni tafakkur eng oddiy qonunlari bilan qurollantiradigan, to'g'ri fikrlashga o'rgatadigan fan esa formal logikadir. Tarixiy kelib chiqishiga ko'ra, u «klassik», «an'anaviy (traditsion)», ommaviyligi nuqtai – nazaridan esa «umumiy logika» deb yuritiladi.

Formal logikani dialektik logika bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Dialektik logika dialektika qonunlarini bilishga tadbiiq etish mahsuli. Dialektik logika tafakkur, uning shakllari, tamoyillarini doimiy o'zgarishda, rivojlanishda deb tushuntirib, dialektika qonunlari nuqtai nazaridan izohlab beradi. Formal logika esa fikrning tuzilishini (tushuncha, hukm, xulosa), qonunlarini (ayniyat, ziddiyat, uchinchi istisno, yetarli asos) o'rganadi. Shu bois formal logika tafakkurning umumiy metodi bo'la olmaydi, biroq inson tafakkurini «charxlab», uning izchil, ziddiyatlardan holi va asos-e'tiborli bo'lishini ta'minlaydi. Logikani puxta o'zlashtirish kishida o'zi va o'zgalar tafakkuriga talabchanlik, tanqidiy qarash hissini shakllantiradi, bu esa katta amaliy va ilmiy—nazariy ahamiyatiga molik.

To'g'ri, grammatikani bilmay turib ham inson so'zlashishni binoyidek o'zlashtirib oladi, mantiqni o'rganmasdan ham mantiqli fikr yuritish mumkin. Maxsus tayyorgarlik ko'rmasa-da jozibali, ishonarli, muntazam fikrlovchi kishilar ko'p, biroq grammatikani bilish nutqimiz qimmatini oshirgani kabi mantiq ilmini o'rganish tafakkurimiz qudratini oshiradi.

Ayniqsa, logikaning ta'limdagi roli g'oyat katta. O'qituvchining mantiqiy tayyorgarligi ta'lim—tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy usullardan samarali foydalanishda, nutqning asosli bo'lishini ta'minlashda, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim.

U o'qituvchilar va o'quvchilarni munozara yuritish madaniyatiga, haqiqatni aniqlash, uni yoqlab chiqish, asoslashda mantiqiy qonun—qoidalaridan foydalana bilishga, o'zgalar fikrini taxlil qilish, o'z fikrini ixcham, lo'nda, ishonarli bayon etishga o'rgatadi. Xullas, mantiq kishida abstrakt tafakkurni rivojlantiradi, umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ilmiy—texnika inqilobi sharoitida bu tadqiqot olib borish hamda nazariy ma'lumotlarni tahlil qilishda nihoyatda zarur.

Ilmiy kuzatishlar, oliy va o'rta maxsus yurtlari talabalari bilan

o'tkazgan muloqotlarimiz shundan dalolat beradiki, hozircha aksariyat yoshlarimiz mantiq qonun—qoidalaridan, to'g'ri fikrlash ko'nikmalaridan bexabar, ularda mustaqil tafakkur madaniyati yetarlicha shakllangan deb bo'lmaydi. Yoshlarda o'z fikri va o'zgalar fikriga tanqidiy—tahliliy qarash yaxshi rivojlanmagan. O'z fikrini aniq izchil, ziddiyatsiz, asosli, ishonarli ifoda etish, o'z xulosalarini isbotlay olish, lozim bo'lganda, bahs—munozarada o'zgalarning xato fikrini dadil rad eta bilish malakasi ham juda muhim. Ushbu fazilatlar ravshanki, o'z-o'zidan shakllanmaydi. Bunda, ayniqsa, mantiq fanining ahamiyati beqiyos. Biroq, taassufki, talabada mustaqil fikrlash ehtiyojini tug'diradigan yangi pedagogik texnologiyalar o'quv—tarbiya jarayoniga juda sekinlik bilan joriy etilyapti. Binobarin, yoshlar tafakkurini bir qolipga solib qo'yuvchi har qanday eski andozalardan qat'iy voz kechish, erkin ijodiy fikr parzosi uchun ufqlarni ochish lozim. Prezidentimiz «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolada juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, «chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi... Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin».

Demak, mantiq fani asosiy vazifalari doirasi ana shu omillar hisobiga kengayib borayotganini qayd etish mumkin.

3. Formal logika falsafa bilan uzviy bog'liq shakllanib borgan. Qadimgi Xitoy, Hindiston, Gretsiya mantiq ilmining ilk o'choqlari. Qadimgi hind va yunon logikasi o'z metodi va fikr strukturasini o'rganish jihatidan ikki mantiqiy sistemani tashkil etgan. Hind mantiq'i eramizdan avvalgi V—IV asrlarda yuzaga kelgan. VI—X asrlarda Diaganga, Dxarmakirti, Dxarmottari, Ratnakirti asarlarida o'z takomiliga yetdi. Ular fikr shakllarini konkret mazmun bilan bog'lab tahlil etishgan. Hind logikasi besh qismli sillogizm (xulosa chiqarish) ta'limotini o'z ichiga oladi. Unda hukm tafakkurning emas, xulosa chiqarishning elementi deb, idrok fikrlashning ibtidosi deb qaraladi.

Eramizdan oldingi V—IV asrlarda yunon logikasi shakllandi. Atoqli faylasuf Demokrit (er. oldingi 460-370 yillar) induksiya, analogiy tushunchaga to'xtaladi. Formal logika rivojida Sokrat (er. oldingi 469—399) va Platon (er. oldingi 428—347) roli g'oyat katta. Sokrat turli mantiqiy usullar, vositalar, Platon tushuncha, hukm to'g'risida salmoqli fikrlar bildirgan.

Buyuk yunon faylasufi Aristotel (er. oldingi 385—322) logikani, mustaqil fan sifatida asoslab berdi. Uning «Organon» (yunonchadan tarjima «qurol», «vosita» degani) asarida to'g'ri fikrlashning mashhur ayniyat, nozidlik, uchinchisi istisno qonunlarini izohlab beradi. «Metafizika» asarida Aristotel logikani xulosa chiqarish, haqiqatni isbotlash, chin bilimni asoslab berish to'g'risidagi fan» deb ta'riflaydi. Uning asosida sillogizm, deduktiv xulosa chiqarish to'g'risidagi ta'limot yetadi. Logika

ilmining ijodiy rivojlanishida Markaziy Osiyolik qomusiy aql sohibi Abu Nasr Forobiy (873—950 yillar) alohida o`rin tutadi. U 9 mantiqiy risola yaratib, tafakkurning shakl va qoidalari, mantiqiy xatolar, ularni tuzatish yo`llari xususida fikr yuritadi. «Mantiq to`g`risidagi risolaga muqaddima» nomli asarida u mantiqni «to`g`ri fikrlash, haqiqatga erishish, tafakkurni tashkil etish san`ati» deb ta`riflaydi. Uning fikricha, logika 8 qismdan iborat. Bular ichida sillogizm va isbotlash haqiqatga eltuvchi usullar.

Markaziy Osiyolik yana bir buyuk alloma—Abu Ali Ibn Sino (980—1037 yillar)ning mantiqiy asarlari qomusiy kitob—«Kitob ash-shifo»ning 9 qismida bayon etilgan. Ibn Sino logikani noma`lumdan ma`lum bilimlarni keltirib chiqarish, chin bilimni yolg`ondan ajrata olish to`g`risidagi fan» deb biladi. U tushuncha, hukm, xulosa chiqarishning turlari, strukturasi, deduktsiyaga to`xtaladi, o`z o`tmishdoshlaridan farqli o`laroq, mantiqni matematika bilan yaqinlashtirishga, logikada matematik usullardan foydalanishga harakat qiladi. Mantiq rivojida ozarbayjon mutafakkiri Baxmaner, arab faylasufi Ibn Rushd. hamyurtimiz Mirsharif Jurjoniylarning ham hissasi katta.

XVII asrda ingliz faylasufi Frensis Bekon (1562—1626 yillar) «Yangi Organon» nomli asarida Aristotel an`anaviy sillogistikasini tanqid qilib, haqiqatga olib boruvchi yagona to`g`ri yo`l sifatida induksiya metodini ishlab chiqdi. Bu metod yakka faktlarni oddiy sanab o`tishga emas, ularning bog`lanishi va umumiy sabablarini aniqlashga qaratilgandir.

Atoqli nemis olimi G.V.Leybnits (1646—1716 yillar) logikaga yetarli asos qonunini kiritgan, matematik logikaga asos solgan, birinchi bo`lib mantiq operatsiyalarni formallashtirgan.

Nemis klassik falsafasi asoschisi Immanuel Kant (1724-1804 yillar) fikricha, mantiq mavhumlashgan fikr shaklini o`rganishi kerak, uning haqiqatga aloqasi yo`q. Logikaning vazifasi «aqlning har qanday ziddiyatdan holi bo`lishni ta`min etish. Mantiq qonunlari shunga xizmat qiladi». Kant an`anaviy mantiq yetarli emas, deb tajribagacha (apriori) mavjud ongning azaliy o`zgarmas shakllarini o`rganuvchi transtsendental logikani ishlab chiqishga harakat qildi. Tafakkur shakl va qonunlari insonga azaldan berilgan, fikr chin bo`lishi uchun ularga mos kelishi kerak. Kantning bu qarashlari «Sof aql tanqidi», «Logika» nomli asarlarida bayon etilgan.

Buyuk nemis faylasufi G. V. F. Gegel (1778—1831 yillar) logika «mutloq g`oyani sof, azaliy shaklda o`rganuvchi fan» deb baholaydi. Gegel Kant logikasini tanqid qilib, fikr shaklini mazmun bilan bog`lab o`rganish zarurligini ta`kidlagan. Tafakkur formalari o`zgarish va rivojlanishda. Tushuncha—rivojlanishning oliy bosqichi, borliq va mohiyatning birligi. Gegel dialektik logikaga asos soldi.

Ingliz olimlari V. Yuel (1794 -1866), J. S. Mill (1806-1807) va V.

Minto yaratgan ta'limotlar logika tarixiga umuminduktivizm nomi bilan kirgan.

Shunday qilib, ushbu mavzuni xulosalab aytadigan bo'lsak, formal logika tafakkur shakllari va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi insonni to'g'ri fikrlashning eng oddiy va umumiy qonun-qoidalari bilan qurollantiruvchi fan.

2-mavzu. TUSHUNCHA (3soat)

1. Tushuncha—tafakkur shakli. Tushunchaning mazmuni va hajmi.

2. Tushuncha turlari, ular o'rtasidagi munosabatlar.

3. Tushunchani umumlashtirish va chegaralash.

4. Tushunchani bo'lish va ta'riflash, qo'shish va ko'paytirish.

1. Fikr tushunchalarga quriladi. Uni muhtasham bir binoga qiyos etsak, «g'isht»lari tushunchalaridir. Ular o'z—o'zidan, tayyor holda paydo bo'l-maydi, Narsa—hodisalar logikada «fikr predmetlari» deb yuritiladi. Ular turli xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar «belgilar» deb nomlanadi. Masalan, kitobning katta—kichikligi, mundarijasi, rangi, qalin—yupqaligi.

Predmetlar belgilarga ko'ra yo o'xshash bo'ladi yoki farq qiladi. Predmetning boshqa predmetdan farqini, muayyanligini ko'rsatadigan xossalalar «muhim belgilar» deb ataladi. Chunonchi, kitobning muhim belgisi uning mutolaa qilishga mo'ljallanganligi. «Inson» tushunchasi barcha odamlar uchun umumiy bir necha muhim belgini o'z ichiga olgan: ong, tilga egaligi, mehnat qilish qobiliyati, ijtimoiy mohiyati, kishilarning irqiy, milliy, kasb—kor, jins, yosh xususiyatlari bu o'rinda nomuhim belgilardir.

Kishi atrof—olamni kuzatar ekan, narsa va hodisalarni taqqoslaydi, ulardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlaydi, analiz va sintez yo'li bilan ularning muhim belgilarini ochadi, umumlashtirib, ma'lum tushunchalarda ifodalaydi. Tushuncha—predmet va hodisalarning muhim va umumiy belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Unda hodisaning mohiyati aks etadi.

Tushuncha so'zda ifodalanadi. Tushuncha buyumni aks ettirsa, so'z uning nomini bildiradi. So'z tushunchaning moddiy-buyumlashgan qobig'i, hissiy shakli. Shu bois tushunchalar bilan almashinish mumkin, ular qabul qilingan ma'nolarda qo'llaniladi, aralashtirib yuborilmaydi. Tushuncha mazmun va hajmga ega. Tushunchaning mazmuni u aks ettirayotgan predmetning muhim belgilari yig'indisi. Masalan, «davlat» tushunchasi mazmuniga uning ustqurmaviy hodisaligi, o'z chegaralari, hokimiyat organlari, armiyasi, Konstitutsiyasi kiradi. Hodisa mohiyatiga chuqurroq kira borilgani sari, tushuncha mazmuni yangi belgilar bilan

to'lib boradi.

Tushuncha aks ettirgan narsa—hodisalar yig'indisiga tushuncha hajmi deyiladi. Masalan, «davlat» tushunchasi tarixda o'tgan va hozir mavjud davlatlarning barcha tip va shakllarini qamrab oladi.

Tushuncha hajmi yo keng, yo tor bo'lishi mumkin. Chunonchi. «shahar» «Qo'qon»ga qaraganda kengroq, «o'qituvchi» «pedagog»dan torroq. Kengroq tushuncha-jins, torrog'i tur tushuncha deb qabul qilingan. Biroq, jins va tur tushunchalarga bo'lish shartli, negaki tushuncha turli munosabatda o'zini turlicha namoyon qiladi.

Jins—tur munosabatlari tushunchaning hajmi bilan mazmuni o'rtasidagi teskari aloqa qonunida o'z aksini topgan. Bu qonunga ko'ra, tushuncha mazmuni qancha keng bo'lsa, uning hajmi shuncha tor bo'ladi va aksincha tushuncha hajmi kengaygan sari mazmuni torayib boradi. Masalan, «o'qituvchi» va «metodist—o'qituvchi» tushunchalaridan birinchisining hajmi keng, ikkinchisining mazmuni birinchisidan kengroq, negaki «metodist — o'qituvchi»ning qo'shimcha muhim belgisi bor.

2. Tushunchalar mazmunga ko'ra: a) konkret va abstrakt; b) nisbatdosh va nisbatsiz; v) ijobiy va salbiy; hajmiga ko'ra: a) yakka va umumiy; b) jamlovchi, v) hajmsiz tushunchalarga bo'linadi.

Predmet—hodisalarni aniq aks ettirgan tushuncha konkret tushuncha deyiladi. M: «yotoqhona», «qo'shiq», «Oybekning «Qutlug' qon» romani». «o'qitish metodi».

Narsa yoki hodisaning o'zi emas, balki biror belgisi aks etgan tushuncha abstrakt (mavhum) tushunchadir. Chunonchi, «sof», ulug'vor», «tubanlik».

Nisbatdosh deb bir—birini taqozo etadigan, biri ikkinchisi orqali aniqlanadigan tushunchalarga aytiladi. M: «Ish-ishchi», «oq—qora», «mazmun—shakl».

Biri ikkinchisiga bog'liq, bo'lmagan tushuncha nisbatsiz hisoblanadi. Masalan, «Oy—daraxt», «fan nomzodi—kitobxon», «akvarium-kutubxona». Ijobiy tushuncha narsa yoki hodisaga u yoki bu belgi xosligini ko'rsatadi. M: «odobli», «badavlat». Predmet yoki hodisaning u yoki bu sifatlardan mahrum ekanligini ta'kidlagan tushuncha salbiy tushunchadir. Chunonchi, «beqaror holat», «farosatsiz», «noaniq maqsad».

Reallik qanday bo'lsa, shundayligicha, to'g'ri aks ettirsa, bu chin tushuncha. aksincha, voqelikni buzib, noto'g'ri aks ettirsa, yolg'on tushuncha deb yuritiladi. M: «mustaqil O'zbekiston», «madaniyat fondi», «mehr-oqibat» chin tushunchalar, «abadiy dvigatel», «olamiy efir», «mutlaqo sof modda», «mehnatsiz rohat»—yolg'on tushunchalar.

Yakka tushuncha ayrim predmet yoki hodisani aks ettiradi. M: «Qo'qon pedagogika instituti», «Toshkent», «Alisher Navoiy».

Predmet—hodisalar turkumi, sifatini aks ettirgan tushuncha umumiy

tushunchadir. M: «diniy adabiyot», «daraxt», «o'zbek». Hajmi yo'q (nolga teng) tushuncha aks ettirayotgan narsa borliqda uchramaydi, tabiat va jamiyat qonunlariga zid. Chunonchi. «ideal shaxs», «qorbobo», «semrug' qushi», «anqoning urug'i», «ajina».

Jamlanma tushuncha bir guruh narsani yaxlit aks ettiradi. M: «o'rmon», «flot», «paxtazor». Biroq uni shu guruxdagi har bir elementga tadbiq etib bo'lmaydi. Aytaylik, bir daraxt o'rmonni, bir dona kema flotni tashkil etmaydi, bir dona g'o'za paxtazor emas.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar turlicha mazmuni bir—biridan yiroq tushunchalar taqqoslanmaydigan tushunchalar deb ataladi. M: «gilam», va «avtomobil», «informatika» va «aysberg», «elektron» va «ferma»

Taqqoslanadigan tushunchalarning muhim belgilari umumiy bo'ladi. M: «Siyosiy sistema» va «davlat», «dialektik logika» va «formal logika», «kitob» va «daftar».

Taqqoslanadigan tushunchalar ikki gypyxga bo'linadi: 1) sig'ishadigan va 2) sig'ishmaydigan. Hajmlari to'liq yoki qisman muvofiq tushunchalar sig'ishadigan, aks holda esa sig'ishmaydigan tushunchalardir. Tushuncha hajmini doira bilan ifodalash qabul qilingan. Buni fanga birinchi bo'lib kiritgan nemis mantiqshunosi nomi bilan «Eyler doiralari» deb yuritiladi.

Sig'ishadigan tushunchalar uch munosabatda: a) ayniyat, b) bo'ysunish v) qisman moslik. Ayniyat mazmuni va hajmi to'la mos tushunchalar o'rtasidagi munosabatdir. M: «ikki daryo oralig'idagi o'lka» va «Movarounnaxr», «Abdulla Qodiriy» va «O'tgan kunlar» romani muallifi». Doiralarni lotin alifbosining katta xarflari bilan belgilaymiz: «A», «B», «C», «D» va xokazo. Hajmlari to'la mos doiralar ustma-ust tushadi. (2-chizma).

Bo'ysunish munosabati jins va tur tushunchalar o'rtasida mavjud, ya'ni tur jins tarkibiga kiradi. Chunonchi, «boshlang'ich sinf o'qituvchisi» — «o'qituvchi»ga, «tuman» —«joy»ga- bo'ysunadi. (1 -chizma). Qisman moslik munosabati hajmlari o'zaro kesishadigan -tushunchalar o'rtasida mavjud. M: «diplomat» va «o'zbek», «talaba» va «sportchi». (3—chizma).

Sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar ham uchga bo'linadi: a) birga bo'ysunish; b) qarama-qarshilik; v) zidlik.


Birga bo'ysunish munosabatida bir necha tur tushuncha bir jins tushunchaga bo'ysunadi. Bu ilmiy tilda koordinatsiya deb yuritiladi. M: «o'qituvchi» va «til o'qituvchisi», «matematika o'qituvchisi», «tarix o'qituvchisi» (4—chizma).

Mazmuni qarama-qarshi, lekin hajmi teng ikki tushuncha o'rtasida qarama—qarshilik munosabati mavjud. Xususan, «baland bo'yli» va «past


bo'yli», «oq» va «qora». Bunda oraliq o'rtancha hol ham bo'ladi. Chunonchi, o'rta bo'y, ko'k rang. Oraliq hol «S» bilan belgilanadi. (5—chizma)

Zidlik (kontradiktorlik) munosabatida ikki tushuncha bir—birini inkor qiladi, ammo inkor qiluvchi tushunchaning mazmuni aniq bo'lmaydi, ya'ni «A»—«A—emas». Masalan: «o'qituvchi» — «o'qituvchi emas».


O'qituvchilikdan boshqa kasblar ko'p, lekin bu erda «A—emas» noaniq. Demak, qarama—qarshilik uchinchi tushunchaga o'rin qoldirsa, zidlik o'rin qoldirmaydi. «A» ijobiy bo'lsa, «A—emas» salbiy. (6-chizma).



4-чизма



5-чизма




6-чизма




7-чизма

Силлогизм фигуралари



S-P

S-P



S-P

S-P

9-чизма

3. Tushunchaniig tur belgilarini soqit qilib, jins tushunchaga o'tishi umumlashtirish deb ataladi.

Aytaylik, «ro`za» tushunchasidan, umumlashtira borib, «texnika o'simligi», so`ngra «madaniy o'simlik», undan so`ng «o'simlik», nixoyat, «nabobot» tushunchalariga o'tiladi. Umumlashtirish eng keng hajmli tushunchalar, kategoriyalar (materiya, harakat, makon va zamon, in'ikos, haqiqat, mazmun, shakl, imkoniyat, voqelik va hokazo) bilan yakunlanadi.

Chegaralash-jins tushunchaga ma'lum belgilarni qo'shish bilan tur tushunchaga o'tishdir. «Jumhuriyat» tushunchasiga tur belgisini qo'shib, «Markaziy Osiyodagi eng katta Jumhuriyat», «O'zbekiston jumhuriyati» tushunchasiga o'tamiz. Chegaralash yakka, tushuncha bilan yakunlanadi.

Tushunchani umumlashtirish va chegaralashning mohiyati fikr ketma-ketligi, izchilligini ta'minlaydi. Tushunchaning mazmuni va hajmi esa ta'riflash va bo'lish mantiqiy amallari bilan aniqlanadi.

4. Tushuncha mazmunini ochib beruvchi mantiqiy usul ta'riflash (definitiya) deb ataladi. Bu ayniqsa, fanda katta nazariy va azaliy ahamiyatga molik. Ta'riflash bilan tushunchaning mohiyati, uning boshqa predmetlardan tafovuti aniqlanadi.

M: «Trapetsiya—ikki tomoni parallel, qolgan ikki tomoni parallel bo'lmagan to'rtburchak». Bu ta'rif trapetsiyaning to'g'ri to'rtburchak va rombdan farqini ko'rsatadi. Mazmuni ochilayotgan tushuncha ta'riflanuvchi, bunga xizmat qilayotgan tushuncha esa ta'riflovchi deb ataladi. Ta'riflashning keng tarqalgan yo'li eng yaqin tur va jins belgisi orqali ta'riflashdir. M: «Til—eng muhim muomala vositasi». Tilni «muomala vositasi» deb ta'riflash yetarli emas, zero muomala, aytaylik, imo—ishora bilan ham amalga oshirilishi mumkin. «Eng muhim» so'zi (uning eng yaqin tur belgisi) bunga aniqlik kiritmoqda.

Genetik ta'rif tushunchada aks etgan narsa, xodisaning kelib chiqishi (genezisi)ni ko'rsatadi. Masalan «Ong—in'ikos shakllari evolyutsiyasi mahsuli», Kibernetika—ijtimoiy, biologik va texnikaviy fanlar integratsiyasidan hosila fan»

Nominal va real ta'riflash ham bor. Nominal ta'rifda terminning etimologiyasi ko'rsatiladi. Chunonchi: «Filosofiya» —«donolikni sevish» degani. «Antropologiya» — «odam haqidagi ta'limot» demakdir. Ta'rif tushuncha mohiyatini ochishga qaratilsa, real ta'rif deyiladi. «Filosofiya—tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy taraqqiyot qonunlari to'g'risidagi fan».

Ta'riflashning umumiy va zaruriy qoidalari bor:

1. Ta'rif mutanosib bo'lishi, ya'ni ta'riflanuvchi bilan ta'riflovchi hajman teng bo'lishi kerak. Aks holda juda tor ta'rif paydo bo'ladi. Masalan, «Logika—tafakkur to'g'risidagi fan» juda keng ta'rif negaki bu yerda logikaning tur belgisi ko'rsatilmagan. Buni tekshirib ko'rish uchun ta'riflanuvchi va ta'riflovchining o'rinlarini almashtirish kerak. «Tafakkur to'g'risida fan—logika». Bu yerda mantiqiy nomutanosiblik yaqqol ko'rinadi. Demak, ta'rif noto'g'ri.

2. Ta'rifda doiraga yo'l qo'ymaslik kerak, ya'ni ta'riflanuvchi o'zi bilan emas, boshqa tushuncha bilan ochib berilishi lozim. Aks holda «tavgologiya» deb nomlangan xato kelib chiqadi. Chunonchi, «In'ikos— aks ettirish demakdir», -«O'qituvchi—o'qitadigan kishi».

3. Ta'rifda inkor bo'lmasligi kerak.

4. Ta'rif aniq—ravshan, lo'nda, metaforalardan holi bo'lishi lozim. Uzundan—uzoq ta'rif diqqatni chalg'itadi, ensani qotiradi. Obrazlilik, metafora ma'noga putur yetkazadi. Masala; «makkajo'xori— dala malikasi», «inson—tabiat gultoji».

Ta'riflashga yaqin mantiqiy usullar ko'rsatish, tasvirlash, xarakteristika, o'xshatish va tafovutlashdir.

Ko'rsatish (demonstratsiya)da bevosita idrok qilinayotgan predmetniig individual hossalari ochib beriladi.

Tasvirlash-predmet yoki hodisaning tashqi belgilarini sanab chiqish. M: joyning tafsiloti yoki narsaning tuzilishi, ishlashi to'g'risidagi tafsilotlar. Tasvirlashda narsa belgilari birma—bir sanab o'tiladi, ammo qay biri muhim yoki nomuhimligi farqlanmaydi. Xarakteristikada narsa, hodisaning eng muhim, zaruriy belgilari sanab o'tiladi. M: A. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obraziga xarakteristika.

O'xshatish fikr qilinayotgan ikki predmetdan birini ikkinchisi yordamida izoxlash. M: «Ustoz—otaday ulug'».

Tafovutlashda predmetlar o'rtasidagi farq asosida fikr qilinayotgan tushunchaning muhim belgisi ochib beriladi. M: «Logikaning falsafadan farqi shundaki, u tafakkurning umumiy

qonunlarini emas, balki shakllari, qoidalarini o'rganadi».

Tushunchada aks etgan buyumlarni bilishning yana bir usuli bo'lishdir. Bu amal bilan uning hajmi aniqlanadi. Hajmi aniqlanayotgan tushuncha bo'linuvchi, natijada vujudga kelgan tushunchalar bo'linish a'zolari yoki bo'linmalar, bo'lish asosidagi belgi bo'lish asosi deb ataladi. Aytaylik urushlar xarakteriga ko'ra bosqinchilik va mudofaa, adolatli va adolatsiz, miqyosiga ko'ra jahon va mahalliy urushlarga bo'linadi.

Bo'lishda quyidagi qoidalariga amal qilish lozim:

1. Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'linmalar yig'indisi bo'linuvchi hajmiga mutanosib bo'lishi shart. Chunonchi, «Markaziy Osiyo davlatlari» tushunchasini «mustaqil davlatchilik» belgisi asosida bo'lsak, «O'zbekiston», «Tojikiston», «Turkmaniston», «Qirg'iziston» bo'linmalari hosil bo'ladi. Mutanosiblik qoidasi buzilsa, bo'lish yo juda kengayib yoki juda torayib qoladi.

2. Bo'lish bir belgi asosida amalga oshirilishi kerak.

Bo'linma bir—birini istisno qilishi kerak. Masalan, artistlar unvonsiz, xizmat ko'rsatgan, xalq artistlariga bo'linadi.

Bo'lishda sakrashga yo'l, qo'ymaslik kerak. Masalan, materiya harakati shakllari bo'linganda ketma-ketlik, subordinatsiyaga xilof ravishda mexanik harakatdan kimyoviy harakatga o'tib bo'lmaydi. Bo'lish yaqin turlardan boshlanishi kerak.

Tushunchani bo'lishning dixotomiya va klassifikatsiya turlari ham bor.

(«Dixotomiya» yunonchadan tarjimada «ikki qismga bo'lish» degani). Dixotomik bo'lish

tushuncha hajmini biror belgi bo'yicha bir—birini inkor etuvchi ikki zid tushunchaga bo'lishdir. Masalan, «talabalar» stipendiya

oladigan va stipendiya olmaydiganlarga, «o'qituvchilar» ilmiy darajali va ilmiy darajasizlarga, «organizmlar» bir hujayrali va ko'p hujayralilarga bo'linadi, ya'ni «A» va «A—emas». Ba'zan «A—emas» yana

ikki zid tushunchaga ajraladi. Masalan, stipendiya olmaydigan talabalar» oilasiz va oilali, «oilasiz talabalar» shaharlik va qishloqlik-

larga. ya'ni «A» va «A—emas», «B» va «B—emas»ga, «B—emas» «S» va «S—emas»ga bo'linadi.

Dixotemik bo'lish sodda va qulay: doimo bir asos bo'yicha boradi, mantiqiy xatodan holi, negaki, bo'linuvchi bilan bo'linma hajm jixatidan xamisha mutanosib.

Klassifikatsiya—predmetlarni o'xshashligi va farqiga qarab turkum-

lash, sinflarga taqsimlashdir. Bunda xar bir predmet (predmetlar turkumi yoki sinfining aniq, doimiy o'rni ko'rsatib beriladi. Lotinchadan tarjimada «klassifikatsiya»—«turkumlarga ajrataman» demakdir. U oddiy mantiqiy bo'lishdan ilmiy xarakteri va barqarorligi bilan ajralib turadi. M: D. I. Mendeleevning «Elementlarning davriy sistemasi» da har bir element atom og'irligining o'sib borishi tartibida joylashtirilgan. Tabiiy va sun'iy klassifikatsiyalar farqlanadi. Tabiiy klassifikatsiya predmetning muhim belgilarini hisobga olib turkumlashtirishdir. Masalan, biror hayvon turli klassifikatsiyadan qanday o'rin egallashini aniqlash uchun, avvalo, uning belgilari atroflicha o'rganib chiqiladi. Hozir jonivorlarning tabiiy klassifikatsiyasi 1,5 mln., o'simliklarniki esa 500 ming turga yetgan.

Agar predmetning tasodifiy belgilaridan kelib chiqilsa, bu sun'iy klassifikatsiya bo'ladi. Masalan, xalq noiblarining alifbe tartibdagi ro'yxati, kutubxonadagi adabiyotning mualliflar ismi-sharifi bo'yicha katalogi.

Tushunchalarni qo'shish va ko'paytirish yo'li bilan yangi tushunchalar hosil qilinadi.

Tushunchalarni qo'shishda ikki yoki undan ortiq, tushuncha birlashtiri-

ladi. M: «kino» va «aktyor» tushunchalarini qo'shishdan «kinoaktyor» tu-

shunchasi hosil bo'ladi.

Tushunchalarni ko'paytirishda ular uchun umumiy belgi topiladi. M: «o'qituvchilar» va «unvon sohiblari» tushunchalarini ko'paytirsak, «unvonli o'qituvchilar» tushunchasi yuzaga keladi.

Shunday qilib, fikrning boshlang'ich va eng muhim shakli tushuncha, bir tomondan, olamning in'ikosi, erishilgan bilimlar darajasini aks ettiradi, ikkinchi tomondan, u bilish vositasi, quroli, chunki olam qonunlari tushunchalar yordamida kashf etiladi.

3—mavzu. H U K M (3 soat)

1. Hukm—tafakkur shakli. Hukm va gap.
2. Sodda hukm va uning turlari. Hukmlarda terminlarning hajmi.
3. Murakkab hukm uning turlari.
4. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar.

1. Fikr mavjudligining asosiy shakli hukmdir. Tushunchalar bog'lanib, narsa yoki hodisalarning muhim tomonlari, munosabatlarini ochib beruvchi hukmlarga aylanadi. M: «O'zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik davlat» hukmi «O'zbekiston Respublikasi» va «mustaqil demokratik davlat» tushunchalaridan tuzilgan.

Demak, hukm—predmetning belgisi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor etib aytilgan fikrdir. Masalan, «Ayrim talabalar yotoqxonada yashamaydi». «Hamma kishilar baxtli bo'lishni istaydi».

Har qanday fikr to'g'ri bo'lavermaydi. Voqelikni to'g'ri aks ettirgan fikr chin hukm, aksincha, uni noto'g'ri, buzib aks ettirgan fikr yolg'on hukm deyiladi. Masalan, «Er Quyosh atrofida aylanadi» — chin hukm, «Quyosh yer atrofida aylanadi» esa yolg'on (noto'g'ri) hukmdir.

Hukm uch elementdan iborat: sub'ekt («S»). predikat (P) hamda ular o'r-tasidagi «bog'lovchi». Sub'ekt fikr qilinayotgan predmetni, predikat uning belgisini aks ettiradi. Bog'lovchi sub'ekt bilan predikatni biriktiradi. Sub'ekt va predikat «hukm terminlari» deb yuritiladi. «A'lo o'qish—xar bir talabaning sharaflı burchi», «Milliy qadriyatlarni tiklash xalq ruhini ko'taradi» hukmlarida «A'lo o'qish», «milliy qadriyatlarni tiklash»—sub'ekt, «har bir talabaning sharaflı burchi», «xalq ruxini ko'taradi» —predikat.

Tasdiq hukmning formulasi «S—P» dir, inkor hukmini «S—P» emas. Tasdiq hukmda «dir» qo'shimchasi tushirib qoldirilishi mumkin. Bog'lovchi sub'ekt bilan predikat aloqasini («dir» yoki «emas») ta'minlab keladi. «Barcha», «hech bir», «ayrim» so'zlari hukmning sub'ektga to'la yoki qisman tegishliligini ko'rsatadi va kvantor deb ataladi.

Hukm biror axborotni mujassamlashtirgan darak gapda ifodalanadi. Masalan, «Paxta terimi uyushqoqlik bilan boshlandi», «Xech bir mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tmay turib farovonlikka erisha

olmaydi». So'roq gap hukm bo'la olmaydi, chunki u na inkor etadi,

na tasdiqlaydi, na chin va na yolg'on bo'lmaydi. «Siz imtihonga tayyormisiz?», «Navbatdagi futbol uchrashuvi qachon o'tadi?». Ba'zan so'roq gap ham hukm bo'lishi mumkin. M: «Mehnatsiz baxt bo'larkanmi?», «Abdulla Oripov she'rlaridan ta'sirlanmagan odam bormi?» va b.

Buyruq gap hukm bo'la olmaydi, biror narsani tasdiqlagani yoki inkor etgani bundan mustasno. M: «Nonni uvol qilmang!», «O'zingdan kattani hurmat qil». Bir sostavli shaxssiz gaplar (masalan «Jo'nadilar», «Suzib ketdi», «Tun») ma'lum kontekstdagina hukm bo'ladi.

Ayrim hollarda hukm terminlari (sub'ekt va predikat) darak gapning ega va kesimiga muvofiq kelmaydi. «Barcha o'qituvchilar—ziyolilar»—bu gapda ular to'liq mos. «Vatan taraqqiyoti yo'lidagi mardonavor mehnat o'zbek paxtakori ma'naviy qiyofasining ajralmas belgisidir» degan gapda ega «mehnat», kesim «belgisidir» bo'lsa, sub'ekt «o'zbek paxtakorining ma'naviy kiyofasi», predikat esa «Vatan taraqqiyoti yo'lidagi mardonavor mehnat»dir.

2. Hukm sodda yoki murakkab bo'ladi. Bir sub'ekt va predikatdan tuzilgan hukm sodda (assertorik) hukm deyiladi. U uch turda: atributov (xususiyat), munosabat va mavjudlik (ekzistensiallik).

Atributiv hukmda buyumga ma'lum belgi xosligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Masalan: «Yoshlik—oltin davr», «Odam—ongli mavjudot».

Munosabat hukmida buyumlar o'rtasidagi nisbat aks etadi. Masalan, «Samarqand Toshkentdan qadimiyroq». «Furqat Muqimiyga zamondosh». Formulasi «aRb», bunda «a» va «b»—buyumlar nomi, «R»—munosabat nomi.

Mavjudlik (ekzistentsiallik) hukmida buyumlarning mavjudligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Masalan, «Dunyoda yaxshi odamlar ko'p» «Sababsiz oqibat bo'lmaydi».

Hukm sub'ektning hajmiga qarab umumiy, juz'iy va yakkgaga bo'linadi. Umumiy hukmning sub'ekti ma'lum predmet va xodisalar turkumi, sinfini to'la qamrab oladi. M: «Barcha shahar va tumanlarda Navro'z bayrami tantanalari davom etmoqda». . Formulasi «Hamma S— P dir».

Juz'iy hukmlarda buyum yoki xodisalar bir qismining xususiyati aks etadi. M: «Ayrim kishilar xususiy korxona egalaridir». «Ayrim

S— P dir». Alohida predmet va xodisalarning xususiyatini aks ettirgan hukm yakka hukm deb ataladi. M: «Forobiy—buyuk faylasuf».

Hukmlar miqdor va sifat birligida quyidagi to'rt turga bo'linadi:

Umumiy tasdiq (miqdoran umumiy, sifatan tasdiq): «Barcha kishilar baxtli bo'lishni istaydi». Formulasi «Hamma S— P dir».

Juz'iy tasdiq (miqdoran juz'iy, sifatan tasdiq): «Ba'zi talabalar—sport ustasi». Formulasi «Ba'zi S— P dir».

3. Umumiy inkor (miqdoran umumiy, Sifatn inkor): «Hech bir millat, kurashsiz mustaqillikka erisholmaydi». Formulasi «Hech bir S— P emas»

4. Juz'iy inkor (miqdoran juz'iy, sifatan inkor): «Ayrim qishloqlar gazlashtirilmagan». Formulasi, «Ba'zi S—P emas»: Qayd etilgan hukm turlarini lotin alifbosidagi «A», «J» «E» va «O» xarflari bilan belgilash qabul qilingan. Umumiy va juz'iy tasdiq hukmlari «Affrimo» so'zi (lotincha «tasdiqlayman»)ning unlisi «A» hamda ikkinchi unlisi «J» bilan, umumiy inkor va juz'iy inkor «Neqo» (inkor qilaman)ning birinchi va ikkinchi unlisi («E» va «O») bilan belgilanadi.

Hukmlarda terminlarning hajmi sub'ekt predikatning qanday qismini va predikat sub'ektning qanday qismini qamrab olishi bilan aniqlanadi. Agar sub'ekt va predikat o'zlari ifodalayotgan predmet va hodisalarning hammasini qamrab olgan bo'lsa, terminlar bo'lingan (taqsimlangan) hisoblanadi. Sub'ekt va predikat predmet va xodisalarning bir qismini qamrab olgan bo'lsa, u holda hukm terminlari bo'linmagan (taqsimlanmagan) bo'ladi.

Umumiy tasdiq («Hamma S—P dir») da sub'ekt bo'lingan, predikat bo'linmagan. M: «Markaziy Osiyo jumhuriyatlari suveren respublikalardir». Bu yerda «Markaziy Osiyo jumhuriyatlari» «suveren respublikalar» hajmiga to'liq kiradi, biroq «suveren respublikalar» deganda boshqa respublikalar ham tushuniladi.

Umumiy inkor («Hech bir S — P emas»)da sub'ekt ham, predikat ham bo'linmagan. M: «Urush qurbonsiz bo'lmaydi».

Juz'iy tasdiq «Ayrim S—P » da sub'ekt bo'linmagan, predikat «bo'lingan, yo bo'linmagan bo'ladi. M: «ba'zi yozuvchilar—dramaturrg» deganda sub'ekt bo'linmagan, chunki u yozuvchilarning bir qisminigina qamrab olgan, predikat sub'ekt hajmiga to'liq kiradi, demak, u bo'lingan. «Ayrim talabalar—olimpiada ishtirokchisi»

degan misolda esa sub'ekt bo'linmagan, u talabalarning bir qismini aks ettiradi. Predikat ham bo'linmagan, u sub'ekt hajmiga qisman kiradi, negaki olimpiada ishtirokchilarining bir qismi o'quvchilardan iborat bo'lishi mumkin.

Juz'iy inkor («Ayrim S—P emas»)da sub'ekt bo'linmagan, predikat hamma vaqt bo'lingan. Masalan: «Ayrim o'qituvchilar ilmiy darajaga ega emas».

3. Murakkab hukm bir necha sodda hukmdan hosil bo'ladi. M: «Ibn Sino, buyuk mutafakkir va olim». Murakkab hukmning koniyunktsiya, diz'yunktsiya, implikatsiya, ekvivalentsiya turlari mavjud.

Birlashtiruvchi (kon'yunktsiya) hukm «va» bog'lovchisi yordamida tuziladi. Uning shartli belgisi (a v) Formulasi: «S—P va P1 va P2» misolini yuqorida ko'rdik. Bunda hamma sodda hukmlar chin yoki ulardan birortasi yolg'on bo'lsa, boshqalari ham yolg'on.

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm «yoki» mantiqiy bog'lovchisi bilan bir necha sodda hukmdan yasaladi. Shartli belgisi «a b». Formulasi «S-P yoki p1 yoki r2» Bu yerda bog'lovchi ikki ma'noda: yo qat'iy—ayiruvchi yoki birlashtiruvchi—ayiruvchi ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Birinchi holda qat'iy diz'yunktsiya, ikkinchi holda noqat'iy diz'yunktsiya yuzaga keladi.

Noqat'iy diz'yunktsiyaning qismlari bir—birini istisno etmaydi, balki to'ldiradi. M: «Iqtisodiy krizisdan yo xo'jalik mexanizmini takomillashtirish yoki qattiq tejamkorlik bilan qutulish mumkin».

Kat'iy diz'yunktsiyaning qismlar bir—birini istisno etadi. «Iqtisodiyot yo ma'muriy—buyruqbozlik yoki bozor qonunlari bilan boshqariladi».

Shartli (implikativ) hukm ma'lum shart bilan bogliq. Uning shartli belgisi «a b», ya'ni «a» bo'lsa, «b» bo'ladi». M: «Agar mehnat unumdorligi oshsa, mahsulot tannarxi pasayadi». Shartli hukmda natija yolg'on bo'lsagina hukm yolg'on bo'ladi, boshqa hollarda chin bo'ladi.

Ekvivalentsiya—har ikki qismi o'zaro teng murakkab hukm. Uning belgisi «a»=«b». M: «Sababsiz oqibat bo'lmaydi, oqibatsiz sabab». Ekvivalentsiyaning qismlari bir vaqtda yo chin yo yolg'on bo'ladi.

4. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar «mantiqiy kvadrat» nomli sxemada aks ettiriladi. Diagonal va vertikal chiziqlar tutashgan nuqtalar A, E, 1, O bilan belgilanadi. Ular o'rtasida qarama—qarshilik

ziddiyat, qisman moslik va bo'ysunish munosabatlari yuzaga keladi.. (7-chizma).

Qarama—qarshilik (kontrarlik) munosabati (A va E). M: «Barcha kishilar demokratiya tarafdori» va «Hech bir kishi demokratiya tarafdori emas». Har ikkisi yolg'on. A va E hukmlar bir vaqtda - chin bo'la olmaydi. Biri chin bo'lsa, ikkinchisi yolg'on bo'ladi.

Ziddiyat (kontradiktorlik) munosabati (A va O, ye va I). Ikki zid fikr bir vaqtda yo chin, yo yolg'on bo'lishi mumkin emas. M: «Barcha muxandislar ixtirochi» (A). «Ayrim muxandis ixtirochi emas»(O) dan birinchi bo'lsa, unga zid hukm yolg'on bo'ladi.

Qisman moslik (subkontrarlik) munosabati (I va O). M: «Ayrim talabalar mashg'ulotlarga astoydil qatnashadilar» va «Ayrim talabalar mashg'ulotlarga astoydil qatnashmaydilar». Bular bir vaqtda chin bo'lish mumkin, ammo bir vaqtda yolg'on bo'la olmaydi. Biri yolg'on bo'lsa, ikkinchisi, albatta, chindir, biroq ulardan biri chin bo'lsa, u holda ikkinchisi yo chin, yo yolg'on bo'ladi. «Mazkur do'kondagi mollarning bir qismi sifatli» degan hukm chin bo'lsa, unda «Mazkur do'kondagi mollarning bir qismi sifatsiz» hukmi yo chin yo yolg'on bo'ladi.

Mantiqiy bo'ysunish munosabati (A va I, E va O)da hukmlar umumiy predikat ega, sub'ektlari esa bir—biriga bo'ysunishda. M: «Barcha metallar elektr toki o'tkazish xususiyatiga ega» hukmi (A) «Ayrim metallar elektr toki o'tkazish xususiyatiga ega» (I) hukmini o'ziga bo'ysundiradi. Bo'ysunish munosabatiga kirishayotgan hukmlardan umumiy hukmning chinligi bo'ysunayotgan juz'iy hukmning chinligini belgilab keladi. juz'iy hukmning chinligi umumiy hukmni noaniq qoldiradi. Juz'iy hukm yolg'on bo'lsa, umumiy hukm ham yolg'on bo'lishi mumkin. M: «Ayrim baliqlar quruqlikda yashaydi» yolg'on, demak, «Hamma baliqlar quruqlikda yashaydi» umumiy fikri ham yolg'on.

Hukmlardagi sub'ekt bilan predikat o'rtasidagi bog'lanish xarakteri modallikda ifodalanadi.

Modalligiga qarab ehtimoliy, voqeiy, zaruriy, problematik va ishonchli hukmlar farqlanadi.

Ehtimoliy hukmda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi bog'lanish taxminiy bo'ladi. Bunda hukmlar «ehtimol», «balki», «aftidan», «shekilli» so'zlar bilan yasaladi. M: «Ehtimol, uchar

likopchalar o'zga tsivilizatsiyalardan elchilardir».

Voqeiy hukmlarda predmet bilan uning belgisi orasidagi bog'lanish aniq bo'ladi. Bunday hukmlarda «shubxasiz», «darhaqiqat», «begumon», «chindan ham», «albatta» singari so'zlar bo'ladi. M: «Shubxa yo'qki, O'zbekiston. buyuk mamlakatga aylanajak».

Zaruriy (apodiktik) hukmlarda sub'ekt bilan predikat o'rtasidagi bog'lanish zaruriy. M: «Ziddiyatsiz taraqqiyot yo'q». «Vatanga sadoqat— har bir fuqaroning burchi». «Suv 100 darajada qaynaydi». Ahloq va xuquq normalari zaruriy hukmlardir.

Problematic hukm hali tajribada tekshirilmagan, natijasi ochiq muammo. M: «Ehtimol, kelgusi yilda iqtisodiy vaziyat o'nglanib ketar». «Yangi yil kuni qor yog'sa, ajabmas».

Ishonchli hukmda predikat sub'ektdagi belgini uzil-kesil tasdiqlaydi yoki inkor etadi. «Er o'z o'qi va quyosh atrofida aylanadi», «Bahordan keyin yoz keladi».

4—mavzu. TO'G'RI FIKRLASHNING ASOSIY QONUNLARI (2 soat)

1. «Mantiqiy qonun» tushunchasi.
2. Formal logikaning asosiy qonunlari.
- 3 Formal—logik qonunlardan ta'lim—tarbiyada foydalanish.

1. Qonun narsalar, xodisalar, ularning qismlari, elementlari o'rtasidagi zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlardir.

Bunday bog'lanishlar fikrda ham amal qiladi.

Mantiqiy qonun—fikrlar yoki fikrning turli qismlari o'rtasida yuzaga keladigan zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanib turuvchi aloqadorlikni bildiradi.

Formal—logikaning ayniyat, ziddiyat, uchinchi istisno hamda yetarli asos qonunlari bor. Ular fikrimizning mantiqli bo'lishida, tushuncha va

hukmlar ustida amalga oshiriladigan turli mantiqiy operatsiyalarda, xulosa chiqarish hamda isbotlashda belgilovchi rol o'ynaydi.

Mantiqiy qonunlar predmet va xodisalarning ming yillar davomida inson miyasida aks etishi natijasidir. Shu ma'noda ular ob'ektiv xarakterga ega. Ularni bekor qilish yoki boshqalari bilan almashtirishi mumkin emas. Negaki bular tafakkurning tabiiy qonunlaridir. Shu bilan birga ular umuminsoniy xarakterda, ya'ni irqi,

millati, yoshi, jinsi, kasb—koridan qat'iy nazar xar bir insonning fikrlashi aniq, izchil va asosli bo'lishini talab qiladi. Bundan tashqari to'g'ri fikrlashning bir qator asosiy bo'lmagan qonunlari ham bor. Chunonchi, tushuncha hajmi bilan mazmuni o'rtasidagi teskari aloqa qonuni to'g'ri hukm yoki xulosa chiqarishga oid juz'iy qonundir.

2. Ayniyat qonuni tafakkurning aniq bo'lishini ta'minlaydi. Unga ko'ra, fikrlash jarayonida tushuncha, hukm o'z—o'ziga aynan teng, bir ma'noda ishlatilishi kerak. Formulasi: hukmlar uchun: «a = a» tushunchalar uchun: «A=A».

Olamda narsa va xodisalar hech vaqt o'z—o'ziga teng bo'la olmaydi. Dialektika shunday o'rgatadi. Formal logikada esa bu normativ qoida talabdir. Qonun bir fikr yoki tushunchani ikkinchisi bilan almashtirib yoki aralashtirib yubormaslikni, turli tushunchalarni bir—biriga aynan teng deb qaramaslikni talab qiladi.

M: quyidagi tushunchalar aynan teng; a) «Alisher Navoiy», b) «O'zbek adabiy tilining asoschisi». v) «Maxbub-ul-qulub asarining muallifi. Biroq «Xamsa»ning muallifi» va «Alisher Navoiy» tushunchalari o'zaro teng emas, negaki, Sharqning buyuk shoirlaridan X. Dexlaviy, A. Jomiy, N. Ganjaviylar ham «Xamsa» yozishgan. Ayniyat qonunini buzib, bir tushunchani ikkinchisi bilan almashtirib yuborish noaniqlik va chalkashlikka olib keladi. So'nggi paytlarda yangi atamalarni qo'llashdagi bosh-boshdoqlik bunga misol bo'ladi. Chunonchi, «adres»ga ekvivalent sifatida «manzil», «manzilgoh», «makon», «qarorgoh» qullanyaptiki, bular teng bo'lmaganligidan chalkashlik kelib chiqyapti. Shuningdek, «institut»ga teng sifatida olinayotgan «oliygoh», «ta'lim va tarbiya bilimgo'hi», «dori—muallimini», «oliy ilmgoh» aslida unga aynan teng emas. Yuqoridagi misollarda «terminlarning kengayib yo torayib qolishi» deb atalgan mantiqiy xatolikka yo'l qo'yilgan. Yana bir misol: «Demokratik» tushunchasini ayrimlar «ko'ngliga nima kelsa, shuni qilish» deb tushunib, uning qonunchilik, tartib, xuquq, burch bilan bog'liqligini, siyosiy madaniyat ekanligini esdan chiqaradilar, «ishbilarmonlik»ni «nima qilib bo'lsa ham boylik orttirish», «chayqovchilik», «olibsotarlik» deb buzib talqin etayotganlar ham topiladi. Ayniyat qonuni talablari ma'lum maqsadni ko'zlab ongli buzilishi ham mumkin. Qadimgi yunon mutafakkirlari orasida suxbatdoshni chalg'itib, fikridan adashtirish uchun ataylab tushunchalarni aralashtirib yuboruvchi sofistlar bo'lgan. Misol, uchun «Shoxdor» deb nomlangan sofizmni olaylik.

Yo`qotmagan narsang o`zingda. Shundaymi?

Sen shoxingini yo`qotmagansan.

Demak, shoxing o`zingda. (Sen shoxlisan).

Bu yerda «yo`qotmagan» so`zi ikki ma`noda qo`llanilgan. Birinchi satrdagi «yo`qotmagansan» so`zi bizda bor va yo`qolmagan narsalarga oid. Ikkinchi qatordagisi esa bizda xech qachon bo`lmagan narsaga tegishli. SHu sababli chiqarilgan xulosa shaklan to`g`riga o`xshasa-da, mantiqan noto`g`ri ayniyat qonuniga zid.

Ziddiyat qonuni fikrlashda mantiqiy ziddiyatga yo`l qo`ymaslikni talab qiladi: Ma`lum bir narsa yoki xodisa to`g`risida ayni bir vaqtda aytilgan ikki qarama—qarshi fikr birdaniga chin bo`lishi mumkin emas.

Bu qonun «nozidlik qonuni» deb ham yuritiladi.

Masalan, «matematika—qiziqarli fan» va «Matematika qiziqarli fan emas» degan ikki qarama—qarshi fikr bir vaqtda chin bo`lolmaydi. Albatta, kim uchundir matematika qiziqarli, kim uchundir esa qiziqarli emas, ammo muayyan shaxsning bir vaqtda xam qiziqarli, xam qiziqarli emas deb baholashi mantiqqa zid.

Formal—logik ziddiyatlarni real ziddiyatlardan farqlash lozim. Tafakkur jarayonida narsa va xodisalar nisbiy barqarorlikda olinadi va ular to`g`risida bir ma`noda fikr yuritiladi. CHunonchi, dialektika ta`limotiga ko`ra, narsa xam harakatda (Koinotiga nisbatan), ham sokinlikda (erga nisbatan). Formal logika nuqtai nazaridan esa bu mantiqan xato, negaki, ziddiyatli fikrdir.

Ayrim kishilar bir—biriga zid fikrlarni isbotlashga urinadilar. CHunonchi, «Bozor iqtisodiyotiga o`tish g`oyat murakkab jarayon» deyish bilan birga «Biz qisqa vaqt ichida bozor iqtisodiyotiga o`tamiz» deb ziddiyatga yo`l qo`yishadi.

Demak, ayni bir vaqtda, bir narsaga nisbatan aytilgan ikki qarama-

qarshi fikr chin bo`lishi mumkin emas, biroq har ikkalasi xato bo`lishi mum-

kin. Masalan, «Barcha vrachlar Gippokrat qasamiga sodiq» va «Xech bir

vrach Gippokrat qasamiga sodiq emas» degan hukmlar bir vaqtda chin bo`lishi mumkin emas, lekin bir vaqtda yolg`on bo`lishi mumkin. U hol-

da «Ba'zi vrachlar Gippokrat qasamiga sodiq» degan uchinchi oraliq hukm chin bo'ladi.

Uchinchisi istisno qonuni ikki imkoniyat (alternativa) dan birini tanlash zaruriyati tug'ilganda amal qiladi. Unga ko'ra, bir—biriga zid bo'lgan ikki hukmdan biri hamisha chin, ikkinchisi yolg'on, uchinchisi bo'lishi mumkin emas.

Bir hukmning chinligidan unga zid hukmning xatoligi, hukmning xatoligidan Unga zid hukmning chinligi kelib chiqadi. Masalan,

Bu qo'llanma foydali. Bu qo'llanma foydali emas. qo'llanma haqiqatda foydali bo'lsa, ikkinchi hukm yolg'on, foydali bo'lmasa, unda birinchi hukm to'g'ri. Xullas, yo «A» yoki «A—emas», Uchinchisi istisno etiladi, o'rta oraliq holat bo'lmaydi.

Fikrlash ziddiyatlardan holi bo'lish bilan birga ishonarli ham bo'lmog'i muhim. To'g'ri fikrlashning bu zaruriy talabi yetarli asos qonunida o'z ifodasini topgan. Qonunga ko'ra, xar bir fikrning chinligi avvaldan isbotlangan fikr, mulohaza bilan asoslangan bo'lishi lozim.

Fikr chinligini isbotlashning turli yo'llari bor: yo o'sha narsa-xodi-

salarni ko'rsatish yoki tajribada isbotlash kerak. Ayrim fikrlarning chinligi isbot talab qilmaydi. Aksiomalar—tajribada millionlab takrorlanganidan shubha uyg'otmaydi. SHunday narsa—hodisalar ham borki,

ular xususidagi fikrni tajribada isbotlashning imkoni yo`q. Bu holda fikrning chinligi avvaldan isbotlangan hukmlar yordamida asoslanadi M: «O'zbekistonning o'z gerbi, bayrog'i va gimni mavjud» degan hukm-

ning chinligi «Har bir mustaqil davlatning o'z ramzlari bor» degan chin hukmga asoslanadi.

Tabiat va jamiyat qonuniyatlari, ilmiy nazariyalar, axloq-odob me'yorlari, qonunlar va qonuniy aktlar xam shunday mantiqiy asosdir. yetarli asosga ega bo'lmagan fikrlar, g'oyalar ishonch uyg'otmaydi, uydirma, mish—mish shu jumladandir.

3. Formal—logik qonunlar fikrlash jarayoni tartibli va izchil bo'lishini boshqarib turadi, bir—birini to'ldirib, yaxlit mantiqiy amaliyotni ta'minlaydi. SHu boisdan ularning amal qilish doirasi keng. Ayniqsa, ularning ta'lim—tarbiyadagi ahamiyati benixoyat katta, negaki mantiqli fikrlay olmagan kishi chin bilimlarga erishishi

mushkul.

Ta'limda mantiq qonunlaridan ongli foydalanish o'quvchilar tafakkurini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar nutqida, og'zaki va yozma javoblarida, referat ishlarida mantiqiy qonunlarga rioya qilinishini ta'minlash, bu borada eng oddiy, ammo muxim ko'nikmalarni singdirib borish o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ta'lim jarayonida formal-logik qonunlarni talaba va o'quvchilar ongi—shuuriga singdirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Psixologlarning guvohlik berishlaricha, mustaqil fikrlash tevarak—atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini oqilona, samarali amalga oshirishning asosiy shartidir. Kishi mustaqil fikr yuritish jarayonida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, xotirlab qolgan narsa va xodisalarning to'g'riligi, aniqligi, xaqiqiyliigi yoki ularning voqelikka mos (mutanosib) ekanligini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan tushunchalar, hukmlar, hulosalar, farazlar (taxminlar), chiqarilgan qarorlar chin yoki chin emasligi

(yolg'onligi)ni belgilab, aniqlab oladi. Mustaqil fikrlash orqali kishi voqelikni umumlashtirib, narsa va xodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar va mexanizmlarni anglab yetadi. Xozirgi zamon mutaxassisining bilishi va amaliy faoliyatini oqilona, samarali tashkil qilishda mustaqil fikr yuritishning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Prezident I.A.Karimov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbuskor guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek, «agarda kimda—kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizni, orzu—maqsadlarimizga erishish yulini yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo, hali suyagi, qotmagan, mustaqil dunyoqarash shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning qalbi va ongning mo'rtligidan foydalanib ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimiz va muqaddas odatlarimizga zid bo'lgan g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yulida qurol qilib olishga urinadi». («Xalq so'zi, 2001 yil 25 yanvar»).

Binobarin, yoshlarimizga, kelajagimizga tahdid solib turgan bu xavflarning oldini olish uchun bugun qa'tiy harakat qilmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. YOshlarimizda yana shunday tazyiqlarga

nisbatan ishonchli mafkuraviy immunitetni xosil qilishning samarali vositasi—bu ularda mustaqil fikrlash malakasini hosil qilishdir.

Ta'lim—tarbiya jarayonida o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy mehnat, muomila maromli mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi omillar sifatida yuzaga keladi. Jamoada tanqid, o'zini—o'zi tanqid, baholash, o'zini—o'zi baholash, tekshirish, nazorat qilish, o'zini-o'zi namoyon etish, mulohaza, mushohadadan iborat mustaqil fikr yuritish sifatlari shakllanadi. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, ilmiy yutuqlar ham mustaqil fikr yuritish mahsulidir. Amaliy va nazariy ahamiyatga molik ilmiy farazlar, g'oyalar, ulug'vor maqsadlar, yuksak va ezgu niyatlar esa uning vazifasiga kiradi. O'quv faoliyatida fikr yuritishning o'zaro mustahkam bog'langan yopiq zanjiri yuzaga keladi: mustaqil fikrlash—muammo—masala (topshiriq).

Mustaqil fikrlash o'zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan talaba va o'quvchilarni komillik sari yetaklaydi, tabiat va jamiyat xodisalarini anglashda ular tafakkurida puxta zamin xozirlaydi. Fikr yuritishning mustaqilligi deganda o'quvchining ixtiyoriy ravishda o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy fikr yuritishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, o'z aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul, vosita topib, mustaqil ravishda hal qiluvdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Fikr yuritishning mustaqilligi tashabbuskorlikda, aqlning pishiq-puxtaligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Talaba yoki o'quvchining ta'-

lim—tarbiya jarayonidagi tashabbuskorligi o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishi ularni amalga oshishida, nixoyasiga yetkazishdan, yechimni qidirishda zarur usul va vositalarni shaxsan o'zi izlab topishidan iborat. Komil inson bo'lib yetishishni maqsad qilib olgan yoshlar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklar soxibi bo'lib shakllanmog'i hamda kelajak rivojini ta'minlamog'i uchun mustaqil fikr yuritishga, ijodiy izlanishga puxta o'rganmoqlari, buning uchun esa to'g'ri fikrlash qonunlaridan yaxshi boxabar bo'lmoqlari lozim.

5—mavzu. XULOSA CHIQARISH (4 soat)

I ma'ruza—(2 soat)

1. Xulosa chiqarish to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Bilvosita va bevosita xulosa chiqarish.
3. Deduktiv xulosa chiqarish. Sillogizm va uning turlari,

II ma'ruza—(2 soat)

1. Qisqartirilgan va murakkab sillogizolar.
2. Induktiv xulosa chiqarish va uning turlari.
3. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish va uning turlari.

1. **Fikr mavjudligining yana bir shakli xulosa chiqarishdir.**

Atrof—olamni kuzatar ekanmiz, narsa—xodisalar, ularning xossalari va bog'lanishlari xususida turli xulosalar chiqaramiz. Xulosalar chiqarish ilmiy bilish taraqqiyotning muhim shartidir, chunki shu yo'l bilan yangi bilimlar xosil qilinadi.

Xulosa bir yoki bir necha hukmdan yangi hukm keltirib chiqarishdir. Yangi bilim keltirib chiqarishga xizmat qiladigan hukmlar asoslar deb, hosil qilingan yangi bilim xulosa deb ataladi. M: Har bir talaba imtixonidan muvaffaqiyatli o'tishni istaydi (katta asos).

Abdullaev—talaba (kichik asos).

Abdullaev imtixonidan muvaffaqiyatli o'tishni istaydi (xulosa). Kichik asosdan so'ng tortilgan to'g'ri chiziq bundan keyingi hukm xulosa ekanligini bildiradi. Xulosa chiqarishning umumiy formulasi quyidagicha:

S —P (katta asos).

S —P (kichik asos).

S —P (xulosa).

2. Agar xulosa bir asosdan chiqarilsa, bevosita xulosa chiqarish deyiladi. Bevosita xulosa chiqarishning almashtirish, aylantirish, predikatga qarama—qarshi quyish va mantiqiy kvadrat asosida xulosa chiqarish kabi usullari mavjud.

Almashtirishda hukmning predikati sub'ekti bilan almashtiriladi. Buning ikki yo'li bor: oddiy va murakkab. Hukmning predikati va sub'ekti to'liq olingan bo'lsa, oddiy almashtirish amalga oshadi. M:

«Falsafa tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fandir». Almashtirilsa: «Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fan falsafadir».

Hukmning predikati tuliq xajmda olinmagan bo'lsa, murakkab almashtirish amalga oshiriladi, ya'ni umumiy hukm—juz'iyga, juz'iy esa umumiy hukmga almashtiriladi. M: «Hamma yozuvchilar ziyolilardir» hukmidan «Ziyolilarning bir qismi yozuvchilardir» degan xulosa chiqariladi.

Agar predikat sub'ektga to'la kirsam, bunday juz'iy hukmlarni almashtirib bo'lmaydi. Juz'iy inkor hukmlardan ham almashtirish yo'li bilan hulosa chiqarish mumkin emas.

Aylantirishda inkor hukm tasdiqqa, tasdiq hukm inkorga aylantirilib, xulosa chiqariladi. M: Ba'zi xalq noiblari—ishchi.

Demak, ba'zi xalq noiblari ishchi emas.

Umumiy hukmni aylantirishda chegaralash lozim. Aytaylik, «Odam bo'lish qiyin» umumiy hukmini aylantirish bilan «Odam bo'lish oson emas» degan xulosaga ega bo'lamiz.

Aylantirishni almashtirish bilan qo'shishdan predikatga qarama-qarshi qo'yish usuli xosil qilingan. Predikatga qarama—qarshi qo'yishda yangi hukm, ya'ni hulosaning sub'ekti asos hukmning predikatiga, - predikati esa sub'ektiga qarshi qo'yiladi.

Sxemasi: «P—emas» — «S» — emas».

M: Mexnatsiz baxt bo'lmaydi.

Demak, baxt—mexnatda.

«Mantiqiy kvadrat»dan xulosa chiqarish hukmlar orasidagi qarama-qarshilik, ziddlik bo'ysunish va qisman moslik munosabatlariga asoslanadi. M: Barcha baliqlar suvda yashaydi («A»). Bundan quyidagi xulosalar yasash mumkin:

1) «E» — «Hech bir baliq suvda yashamaydi»—yolg'on;

2) «I» — «Ba'zi baliqlar suvda yashaydi»—chin;

3) «O» — «Bazi baliqlar suvda yashamaydi»—yolg'on.

Bevosita xulosa chiqarishga deduktiv va induktiv xulosa chiqarish kiradi.

2. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiydan xususiy va

yakkaga qarab harakatlanadi. Deduktiv xulosa chiqarish «sillogizm» deb yuritiladi. (yunonchadan tarjimada «xisoblab chiqarish»). Sillogizmda ikki hukmdan yangi, uchinchi hukm keltirib chiqariladi, ya'ni uning tarkibida ikki asos va xulosa bo'ladi.

Sillogizmni tashkil etuvchi tushunchalar «terminlar» deb yuritiladi. Bunday terminlar «uchta: «katta termin», «kichik termin» va «o'rta» termin. Katta termin lotincha «P», kichik termin «S», o'rta termin «M» bilan belgilanadi. Katta va kichik terminlar «chekka terminlar» deb ham yuritiladi.

Har qanday ikki hukmdan o'z—o'zidan xulosa kelib chiqavermaydi. O'rta termin («M») xulosa uchun asos hosil qiladi. Sillogizmdagi katta termin xulosaning predikatini, kichik termin sub'ektini tashkil etadi. Masalan:

Markaziy Osiyo jumhuriyatlarida (M) paxta yetishtiriladi. (P)

O'zbekiston (S)-Markaziy Osiyoda joylashgan jumhuriyat (M). Demak, Uzbekistonda (S) paxta yetishtiriladi (P).

Hamma M-P. S-M. Demak, S—P.

Asoslari oddiy qat'iy hukmlardan iborat sillogizm oddiy qat'iy sillogizm deb yuritiladi.

Sillogistik muhokama sillogizm aksiomasiga asoslanadi. Bu aksioma quyidagicha: Buyumlar turkumi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor yetib aytilgan fikr shu turkumga kiruvchi barcha buyumlarga taalluqlidir. M: SHahar kengashi noiblari (M)-faol kishilar. (P).

Abdullaev (S) —shahar kengashi noibi (M).

Demak, Abdullaev (S) —faol kishi (P).

Sillogizm xulosasi chin bo'lishi uchun asoslar to'g'ri bo'lishi, quyidagi qoidalariga rioya qilish kerak.

Terminlar soni uchtdan ko'p ham, kam ham bo'lmasligi kerak, aks xolda xulosa chiqarib bo'lmaydi.

O'rta termin hech bo'lmaganda asoslardan birida bo'lingan (taqsimlangan) bo'lmog'i kerak. Aks xolda xulosa ishonchli bo'lmaydi. M: Ayrim o'simliklar (M)—zaharli (P).

Oq qo'ziqorin (S)—o'simlik (M).

Bu yerda o`rta termin «o`simlik» xech bir asosda taqsimlanmagan. Xulosa xato.

3. Ikki inkor hukmdan xulosa chiqarib bo`lmaydi. Sababi o`rta termin (M) S va P terminlardan ajralgan. Shu boisdan xulosada S va P terminlari aniq munosabatda bo`lmaydi.

4. "Ikki tasdiq hukmdan inkor xulosa chiqarish mumkin emas.

5. Asoslardan biri inkor hukm bo`lsa, xulosa inkor bo`ladi.

6. Asoslardan biri juz'iy hukm bo`lsa, xulosa juz'iy bo`ladi.

7. Ikki juz'iy hukmdan xulosa chiqarib bo`lmaydi. Sababi o`rta termin (M) bog`lovchilik rolini bajara olmaydi, chekka terminlar munosabati noaniq bo`lib qoladi.

Sillogizmning figura va modullari. O`rta terminning o`rniga qarab

sillogizmning to`rt shakli, ya`ni figurasi paydo bo`ladi. Misollar:

1. Barcha o`qituvchilar M—ziyoli P.

Abdullaev (S)— o`qituvchi (M).

Demak, Abdullaev (S)—ziyoli (P).

II. Halol kishilar (P) o`z mehnati bilan kun kechiradi (M).

Chayqovchi (S)- o`z mehnati bilan kun kechirmaydi (M).

Demak, chayqovchi (S)—halol kishi yemas (P).

III. Yozuvchilar (M)—ijodkorlardir (P).

Yozuvchilar (M)—aqliy mehnat kishilari (S)

Demak, ayrim aqliy mehnat kishilari (S)-ijodkorlardir (P).

IV. Barcha a`lochi talabalar (P) — tirishqoq kishilardir (M).

Tirishqoq kishi (M) —loqayd emas (S).

Demak, talaba (S)—loqayd bo`lmaydi (P). (9—chizma)

Sillogizm figuralari qoidalari. I figurada katta asos umumiy, kichik asos tasdiq hukm, II figurada katta asos umumiy, asoslardan biri va xulosa inkor hukm. III figurada kichik asos tasdiq, xulosa xususiy hukm, IV figurada xulosa umumiy tasdiq hukmi bo`la olmaydi. Agar katta asos tasdiq hukmi bo`lsa, kichik asos umumiy hukm bo`ladi. Agar asoslardan biri inkor hukm bo`lsa, katta asos umumiy hukm bo`ladi.

Qat'iy sillogizmning moduslari asosi va xulosa qismlari bir-biridan miqdor va sifat jihatdan tafovutlanuvchi sillogizm turlaridir. (Lotinchadan tarjimada (modus» — «o`lchov»). Yuqorida sanab

o'tilgan 4 figura tarkibida 19 ta chin modus mavjud.

I figura quyidagi chin moduslarga ega: AAA, EAE, AII, EIO.

I figura quyidagi chin moduslarga ega: AEE, AOO, EAE, EIO.

III figuraning chin moduslari: AA I EAO, I A I, OAO, AII EIO.

IV figuraning chin moduslari: AA I, AEE, IAI, TAO, E I O.
Deduktiv xulosa chiqarishda asoslar shartli yoki ayiruvchi hukmlar bo`-

lishi mumkin. Bu holda shartli va ayiruvchi sillogizmlar kelib chiqadi.

Asoslarning hech bo'lmaganda biri shartli hukm bo'lsa, shartli sillogizm deb ataladi. Shartli sillogizmning ikki turi mavjud (shartli, qat'iy va sof shartli).

Asoslaridan biri shartli, ikkinchisi oddiy qat'iy hukm bo'lsa, bu shartli—qat'iy sillogizm deb ataladi. Uning ikki modusi bor (tasdiq va inkor).

Tasdiq modusi: «a» bo'lsa, «b» bo'ladi.

«a» bo'ladi.

Demak, «b» bo'ladi.

M: Qaldirg'ochlar uchib kelsa, bahor boshlanadi.

Qaldirg'ochlar uchib keldi.

Demak, bahor boshlanadi. Inkor modusi: «a» bo'lsa, unda «v» bo'ladi.

«a» bo'lmaydi.

Demak, «b» bo'lmaydi.

M: Dastgoh soz bo'lsa, ish to'xtab qolmaydi.

Ish to'xtab qoldi.

Demak, dastgoh nosoz.

Har ikki asos shartli hukmlardan iborat bo'lsa, bu sof shartli sillogizm deyiladi. Strukturasi: Agar «a» bo'lsa, «b» bo'ladi.

Agar «b» bo'lsa, «s» bo'ladi.

Demak, «a» bo'lsa, «s» bo'ladi.

M: Isloxot amalga oshsa, iqtisodiyot o'nglanadi.

Iqtisodiyot o'nglansa, xalq farovonligi o'sadi.

Demak, isloxot amalga oshsa, xalq farovonligi o'sadi.

Inkor shaklda: Baxor iliq kelmasa, ekish vaqtida o'tmaydi.

Ekish vaqtida o'tmasa, hosil vaqtida yetilmaydi.

Demak, baxor iliq kelmasa, xosil vaqtida yetilmaydi.

Ayiruvchi sillogizmning asoslaridan biri yoki xar ikkisi ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlardan iborat. U sof ayiruvchi va ayiruvchi—qat'iy sillogizmlarga bo'linadi.

Sof ayiruvchi xulosa chiqarishning asoslari ayiruvchi hukmlar. Strukturalari:

S yoki A, V, yoki S

A yoki A1, yoki A2

S yo A1, yo A2, yo V, yo S.

M: Har qanday falsafa yo idealizm yo materializmdan iborat. Idealistik falsafa yo ob'ektiv idealizmdan yo sub'ektiv idealizmdan iborat.

Ayiruvchi—qat'iy sillogizmning asoslaridan biri ayiruvchi, ikkinchisi qat'iy hukmdan iborat. Uning tasdiqlab, inkor etuvchi va inkor etib, tasdiqlovchi ikki modusi bor.

Tasdiqlab, inkor etuvchi. modusda alternativa bo'ladi. Masalan:

Bu kishi agronom, yo injener, yo o'qituvchi.

By kishi injener.

Demak, bu kishi agronom ham emas, o'qituvchi ham emas. Inkor etib tasdiqlovchi modus: Maktab bitiruvchisi yo o'qishni davom ettiradi, yo ishlaydi.

Abdullaev o'qishni davom ettirmoqchi emas.

Demak, Abdullaev ishga kiradi. SHartli—ayiruvchi xulosa chiqarishning asoslaridan biri shartli, ikkinchisi ayiruvchi hukmdan iborat. Bunday xulosa chiqarish dilemma (ayiruvchi hukm ikki qismdan iborat), trilemma (ayiruvchi hukm qismlari) uchta yoki polilemma (ayiruvchi hukm qismlari ko'p) deb ataladi.

Dilemmaga misol:

Abiturient o'qishga kirishni istasa yo mustaqil tayyorlanadi yoki repetitor yollaydi.

Bu abiturient mustaqil tayyorlangani ham, repetitor yollagani ham yo'q. Demak, bu abiturient O'qishga kirmoqchi emas.

Trilemmaga misol: Kasallik xuruj qilsa, bemorning yo issig'i oshadi yo sillasi quriydi yo a'zoyi—badani og'riydi.

Bemorning issig'i oshmadi, sillasi qurigani yo'q, a'zoyi—badani og'rigani yo'q.

Demak, kasallik xuruj qilgani yo'q.

II—ma'ruza.

1. Qisqartirilgan va murakkab sillogizmlar.

Sillogizm aksariyat qisqartirilgan shaklda qo'llaniladi.
«Entimema»

(grekcha «fikrda», «yodda» degani) asoslaridan biri yoki xulosasi qisqartirilgan sillogizmdir. Entimemada ko'pincha kichik asos tushirib qoldiriladi.

M: «Xar qanday millat singari o'zbeklarning ham urf—odat va an'-

analari bor». Bu yerda «O'zbeklar—millatdir» degan kichik asos tushirib

qoldirilgan. Ba'zi sillogizmlarda katta asos tushirib qoldirilgan bo'lishi ham mumkin. CHunonchi: «O'zbekiston mustaqil respublika bo'lganligidan o'z madhiyasi, nishoni va bayrog'iga ega». Bu o'rinda «Har qanday mustaqil respublika o'z madhiyasi, nishoni va bayrog'iga ega bo'ladi» degan katta asos tushirib qoldirilgan.

Ritorik murojaatda ko'pincha xulosa tushib qoladi. M: «Har bir fuqaro qonunlarni xurmat qilishi shart. Siz—shu davlat fuqarosisiz—ku». «Siz qonunlarni xurmat qilishingiz shart» degan xulosa fikran kelib chiqadi. Birining xulosasi ikkinchisiga asos bo'lsa bu murakkab sillogizm polisillogizm deb nomlanadi. U progressiv yo regressiv bo'ladi. Progressiv polisillogizmda bir sillogizmning xulosasi ikkinchisiga katta asos bo'ladi. Quyida uch sillogizmdan tashkil topgan progressiv polisillogizmni keltiramiz:

Salomatlikni—mustahkamlaydigan hamma narsa (A) foydali (V).

Sport (S) salomatligini mustahkamlaydi (A)...

Demak, sport (S)—foydali (V).

Engil atletika (D)—sport turidir (S)

Demak, yengil atletika (D)—foydali (V).

YUgurish (E)—engil atletikaning bir turi (D).

Demak, yugurish (E)—foydali (V).

Regressiv polisillogizmda bir sillogizm xulosasi ikkinchisiga kichik

asos bo'ladi. Masalan:

1. Barcha organizmlar (V) jismlardan iborat (S).

O'simliklar (A)—organizmlardir (V).

Demak, barcha o'simliklar (A)—jismlardan iborat (S).

2. Barcha jismlar (S) vaznga ega (D).

Barcha o`simliklar (A) jismlardan iborat (S).

Demak, barcha o`simliklar (A) vaznga ega (D).

Progressiv va regressiv polisillogizm qisqartirilsa, sorit ko`rinishiga kiradi. Soritning progressiv vz regressiv turi mavjud. Progressiv sorit dastlabki sillogizm xulosasi va keyingisining katta asosini tu-

shirib qoldirish bilan hosil qilinadi. M: Salomatlikni mustahkamlaydigan hamma narsa (A) —foydali (B).

Sport (C) salomatlikni mustahkamlaydi (A).

Engil atletika (D)—sport turidir (S).

Yugurish (E)—engil atletikaning bir turi (D).

Demak, yugurish (E)—foydali (B).

Regressiv sorit regressiv polisillogizmdan dastlabki sillogizm xulosasi va keyingilarining kichik asoslarini tushirib qoldirib yasaladi.

Barcha o`simliklar (A)—organizmlardir (B).

Barcha organizmlar. (B)—jismlardan iborat (S).

Barcha jismlar (S)—vaznga ega (D).

Demak, har qanday o`simlik (A) vaznga ega (D).

Epixeyrema asoslari entimemadan iborat murakkab sillogizm.

Barcha A—S dir, chunki A—B dir.

Barcha D—A dir, chunki D—E dir.

Demak, barcha D—S dir.

Misol: Ona-Vatanga xizmat qilish (A) taxsinga loyiq. (S), negaki Ona-Vatanga xizmat qilish (A) jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi (B).

O`qituvchilik (D) Ona-Vatanga xizmat qilishdir (A), chunki o`qituvchi (D) yosh avlodni kamolga yetkazadi (E).

Demak, o`qituvchilik (D) taxsinga loyiq (S).

2. Induktiv xulosa chiqarish va uning turlari.

Induktsiya yakka yoki juz'iy asoslardan umumiy xulosa chiqarishdir. Induktsiya to`liq va to`liqsiz bo`ladi.

To`liq induktsiya ma'lum hodisaning hamma hollarini hisobga olib xulosa chiqarishdir. M: O`zbekiston, Tojikiston, Qirg`iziston, Turkmanistonda paxta yetishtiriladi.

O`zbekiston, Tojikiston, Qirg`iziston, Turkmaniston—Markaziy Osiyoda joylashgan.

Demak, Markaziy Osiyoda paxta yetishtiriladi.

To`liq induktsiya xulosasi qat'iy va ishonchli. U matematika va boshqa aniq fanlarda keng qo`llaniladi. To`liq induktsiya uchun, a) predmet yoki hodisalar miqdorini aniq bilish; b) o`rgatilayotgan

belgilar shu sinfga kiruvchi narsalarga xos ekaniga ishonch hosil qilish; o'rganilayotgan elementlar haddan ziyod bo'lmasligi kerak. To'liq induksiya statistikada samarali qo'llaniladi.

Hodisaning hamma hollarini o'rganish imkoni bo'lmaganda ayrimlari asosida xulosa chiqarish to'liqsiz induksiya deyiladi.

A1 —«b» belgiga ega.

A2—«b» belgiga ega.

A3—«b» belgiga ega.

Demak, barcha A—«b» belgiga ega.

To'liqsiz induktsiyaning ommabop, ilmiy va faktlarni taxlil qilish va tanlashga asoslangan turlari bor. Ommabop induksiya oddiy kuzatish (sanab chiqish)ga asoslanadi. Belgining bir turdagi predmetlarda uchrashidan shu sinfga taalluqligi to'g'risida xulosa chikariladi. Bunda zid xolat uchramasligi shart. Bunday induksiya xulosasi ehtimoliy bo'ladi. M: qaldirg'ochlar kelishidan baxor kelgani xaqida, hamma soxada ham ishlaam lozimligidan «Mexnatsiz baxt yo'qligi» xaqida xulosa qilinadi, kasallik oxir—oqibatda davo topishidan «dard—mehmon» deb xulosa chiqariladi. Ommabop induksiya narsa—hodisalar ichki moyiyatini yoritib berolmaydi, shunga qaramay, empirik qonunlarni ochishda qo'l keladi.

Ilmiy induktsiyada ayrim narsa yoki hodisa asosida butun sinf (turkum) xaqida xulosa chiqariladi, sababiy bog'lanish va qonunlar ochiladi. Masalan, «Suvsiz hayot yo'q». Inson 30—40 kungacha ochlikka chidashi mumkin, ammo suvsizlikka bardosh bera olmaydi. Ilmiy qonunlar (Arximed, Kepler, Om qonunlari) ilmiy induktsiyaga asoslangan.

Faktlarni tahlil qilish va tanlab olishga asoslangan induktsiyada rejali sistemali saralab olingan, tipik predmetlar o'rganilib, tasodifga o'rin qoldirmaydi. O'rta hosildorlik, urug'ning to'liq unib chiqqanligi, katta partiyadagi tovarning sifati, foydali qazilmaning tarkibi shunday aniqlanadi. Masalan, zavodga keltirilgan xom-ashyoning sifati tanlab aniqlanadi, so'ng xulosa yasaladi.

3. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish va uning turlari.

«Analogiya» «o'xshashlik» degani. Ikki predmetning ba'zi belgilari

o'xshashligidan boshqa belgilari, munosabatlari ham o'xshashligi to'g'risi-

da xulosa chiqarish analogiya bo'yicha xulosa chiqarish deyiladi. Belgilar

va munosabatlar analogiyasi farqlanadi.

Belgilar analogiyasining sxemasi.

«A» predmet «a», «b», «s», «d», «e» xossalarga ega.

«B» predmet «a», «b», «s», «d» xossalarga ega.

Demak, «B» predmet «e» xossaga ham ega.

Inkor kasallik belgilari o`xshashligidan kelib chiqib tashxis (diagnoz) qo`yadi.

Xossalar analogiyasi ishonchli xulosa berishi ham mumkin. Chunonchi, Janubiy Afrikaning geologik tuzilishi Sharqiy Sibir geologik strukturasi bilan o`xshash. Janubiy Afrika olmos konlaridan moviyrang mineral topildi. Shunday mineral Yoqutistondan topilgan. Shundan so`ng bu yerda ham olmos konlari bor degan xulosaga kelindi. Bu keyincha o`z tasdig`ini topgan.

Munosabatlar analogiyasi buyumlarning munosabati o`xshashligini ifodalaydi. Misol: Rezerford atom tuzilishining planetar modelini Quyosh va planetalar o`rtasidagi munosabatdan kelib chiqib yasagan.

Biroq har qanday o`xshatish analogiya bo`lavermaydi. Badiiy o`xshatish mantiqiy xulosa chiqarishga asos bo`laolmaydi.

Analogiya bo`yicha to`g`ri xulosa chiqarish uchun taqqoslanayotgan belgilari imkon qadar ko`p, muhim, o`ziga xos bo`lishi shart.

6—mavzu. ISBOTLASH VA RADDIYA (2 soat)

1. Isbotlash tushunchasi. Bevosita va bilvosita isbotlash.
2. Raddiya tushunchasi. Isbotlash va raddiya qoidalari.
3. Isbotlashdagi paralogizm, sofizm va paradokslar.

1. Isbotlash bevosita yo bilvosita amalga oshiriladi.

Tezisning

chinligini ma`lum asoslardan to`g`ridan-to`g`ri keltirib chiqarish bevosita isbotlash deb ataladi. Masalan, «Xalq ommasi—tarixning ijodkori» degan tezis birinchidan, xalq ommasining moddiy ne`matlar yaratishda, ikkinchidan siyosiy jarayonlarda, uchinchidan, ma`naviy boyliklar yaratishda hal qiluvchi o`rin. egallashini ko`rsatish bilan bevosita isbotlanadi.

Bilvosita isbotlashda tezisning chinligi antitezisning xatoligini ko`rsatib isbotlanadi. Mazkur usul bevosita isbotlash uchun argument

yetarli bo'lmaganda qo'llaniladi. Bevosita isbotlashning ayiruvchi (apogogik) turlari mavjud. Ayiruvchi bilvosita isbotlashda bittadan boshka hamma imkoniyat yolg'on ekanligini isbotlanadi. Masalan, hodisani keltirib chiqargan sabablar «A» yoki «B» yoki «C». Tadqiqotlar bunga na «B», na «C» daxldor emasligini ko'rsatdi. Demak, sabab «A».

Apagogik isbotlashda tezisga zid fikr xato ekanligi, isbotlanadi. Bu «Qarama—qarshisidan kelib chiqib isbotlash» deb ham yuritiladi. Bunda uchinchi istisno qonuni qo'llaniladi. Antitezis xato bo'lsa, tezis chin bo'ladi.

2. Raddiya tushunchasi. Isbotlash va raddiya qoidalari.

Tezisning asossizligini isbotlash raddiya deb ataladi: Raddiyaning uch usuli bor: 1) tezisni rad etish: 2) argumentlarni tanqid qilish: 3) demonstratsiyaning asossizligini isbotlash.

Tezis uch usulda rad etiladi: 1) faktlar orqali. Masalan, «Venerada hayot bo'lishi mumkin» degan tezis Venera planetasi satxida issiqlik 470—480 darajada, bosim 97—98 atmosfera birligida ekanligi, bunday sharoitda hayot bo'lmasligi fakti bilan rad etiladi.

2) Tezisdan kelib chiquvchi xulosa noto'g'ri (ziddiyatli) ekanligini isbotlash bilan.

3) Antitezisni isbotlash bilan. Antitezis chin bo'lsa, tezis noto'g'riligi kelib chiqadi. Argumentlarni tanqid qilishda argumentlar to'g'riligi yoki asossizligi isbotlab beriladi.

Isbotlash jarayoni (demonstratsiya)ning asossizligini aniqlashda qoida buzilgani yoki «shoshma—shosharlik bilan» xulosa chiqarilgani ko'rsatiladi.

Isbotlash qoidalari:

1). Asoslar chin, to'g'ri isbotlangan bo'lishi kerak. Asoslar xatoligi tezisning xatoligini keltirib chiqaradi.

2). Asoslar mustaqil ravishda chin bo'lishi kerak. Asoslar tezis orqali isbotlansa, mantiqiy aylana yuzaga keladi.

3). Isbotlanmagan asoslardan foydalanish mumkin emas aks holda isbotlash yuz bermaydi.

3. Isbotlashdagi paralogizm, sofizm va paradokslar.

Isbotlashda mantiq qoidalariga rioya etmaslik sababli yo'l qo'yilgan

xato paralogizm deb ataladi. (Yunonchadan tarjimada «noto'g'ri muhokama»

degani).

Isbotlashda atayin noto'g'ri fikr yuritish esa sofizm deyiladi. Yunonchadan tarjimada («ayyorlik», «uydirma»). Sofizm haqiqatni yolg'on, yolg'onni haqiqat deb, raqibni aldash, chalg'itish, noto'g'ri xulosalar chiqarishga majbur qilish uchun tushunchalar ma'nosini buzib talqin etishdan iborat. Qadimgi yunon faylasufi Platonning «Evtidem» asarida quyidagi sofizm keltirilgan:

O'g'ri hech qachon yomon narsani olmaydi.

Yaxshi narsani olish yaxshilikdir.

Demak, o'g'rilik yaxshilikdir.

Bu yerda «olish» so'zi ikki ma'noda qo'llanilgan. Birinchisi «o'g'irlash», ikkinchisi «xarid qilish» ma'nosida. Bu tushunchalar teng ma'noda qo'llanib, xulosa chiqarilganki, u shaklan to'g'ri, ammo mantiqan xato.

Sofizmning o'ziga xos shakli paradoks hal qilib bo'lmaydigan, ziddiyatli fikr. Uning chinligi ham, yolg'onligi ham isbotlanishi mumkin. (Yunonchadan tarjimada paradoks)—«g'ayritabiiy fikr»). Paradokslar Qadimdan ma'lum. M: «To'da», «Kal», «Shahar hokimi», «General va sartarosh» kabilar. Paradoks sof mantiqiy vositalar bilan isbotlab bo'lmaydigan qarama-qarshilik. M: Sokrat: «Men shuni bilamanki, xech narsani bilmayman», deydi. Agar u chindan hech narsani bilmaydi, desak o'z bilmasligini biladi. Hech narsani bilmasligini biladi—ku, desak, «hech narsani bilmayman» deb buni inkor etmoqda.

Bertran Resselning «Shahar hokimi» paradoksining mazmuni shunday:

Hokimlar uchun maxsus shahar ajratiladi, Bu maxsus shahar hokimi qa-

erda istiqomat qilishi kerak? U o'z shahrida yashashining imkoni yo`q,

negaki bu o'z shaharlarida istiqomat qilmaydigan hokimlar shahri. U boshqa shaharda ham yashay olmaydi, chunki u ham maxsus ajratilgan shu

shaharda yashashi kerak. Demak, u na o'z shahrida, na undan boshqa yerda

yashay olmaydi.

Shunga o'xshash paradokslar asrlar davomida boshqotirma bo'lib keldi. Hozir ularni matematik hal qilishda siljish bor.

1. Gipoteza—bilim shakli.
2. Gipotezani ishlab chiqish bosqichlari.
3. Gipotezani tasdiqlash usullari, raddiyasi.

1. Tafakkur bilmaslikdan bilishga, oz bilishdan ko`prok bilishga, tax-miniy bilimdan aniq bilimga, bir mohiyatdan ikkinchi, chuqurroq mohiyatga kirib boradi. Shu jarayonda turli taxmin, farazlar ilgari suriladi, ular asoslanadi. Bu taxmin, farazlar turliligi tasdiqlansa, ilmiy nazariya yoki chin hukmga, rad etilsa, yolg'on hukmga, yanglicuvga anglanadi, («Gipoteza» yunonchadan tarjimada «faraz» degani).

Gipoteza xodisaning sabablari, qonuniy aloqalarni to'g'risidagi ilmiy faraz, taxmindir. Gipoteza fan taraqqiyotining o'ziga hos shakli, u noma'lum faktlarni ochib, ob'ekt haqidagi eski bilimni inkor etib, yangisi vujudga kelishiga zamin bo'ladi.

Biroq har qanday faraz, taxmin gipoteza bo'lavermaydi. Gipotezani xomxayoldan farqlash kerak. CHunonchi, geliotsentrik nazariyaga qadar yerning harakatsiz turishi to'g'risida, «olamiy efir», sun'iy oltin olish haqidagi taxminlar bo'lgan.

Faraz gipoteza aylanishi uchun:

1. Uning mazmuni mavjud ilmiy ma'lumotlarga zid bo'lmasligi;
2. Uni tasdiqlash yoki inkor etishga qaratilgan faktlar umumiy bo'lishi;
3. Boshqa taxminlardan yaxshiroq ifodalangan bo'lishi lozim.

Mantiqiy tuzilishiga ko'ra gipoteza tafakkurning alohida bir shakli

emas, u tafakkur shakllarining barchasini qamrab oladi. Uni vujudga keltirish va isbotlashda analogiya, induktsiya, deduktsiya, analiz, sintez, umumlashtirish, mavxumlashtirish kabi usullar qo'llaniladi.

Gipoteza, birinchidan; bilim shakli; ikkinchidan; taxminiy fikr: uchinchidan, kuzatish, tajriba maxsuli; to'rtinchidan, o'rganish ob'ektidir.

Gipoteza umumiy, xususiy va yakka bo'ladi. Umumiy gipoteza predmet-xodisalarning butun sinfi, guruxiga aloqador. CHunonchi, Demokritning modda atomlarday tuzilganligi haqidagi gipotezasi.

Xususiy gipoteza—bu bir qism narsa, hodisalar to'g'risidagi taxmin

M: Viruslarning o'z umrini tugatgan bakteriyalardan kelib chiqishi to'g'risidagi gipoteza.

Yakka gipoteza konkret voqea—xodisalar to'g'risidagi taxmin, Chunonchi, bemorning shaxsiy xususiyatlariga xos gipoteza.

Voqelikni aks ettirishiga ko'ra ishchi versiya va ilmiy gipotezalar farqlanadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning Dastlabki bosqichida ilgari suriladi, u hodisaning sababi, qonunlarini aniqlash vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. Hodisalarni guruhlariga bo'lishga, qayta—qayta tekshirishga qaratiladi.

Sud—tergov ishlaridagi taxminlar versiya deb ataladi. Chunonchi, AQSH prezidenti Jon Kennedi o'ldirilishining turli versiyalari bor.

Ilmiy gipoteza tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlarini ochish-

ga qaratilgan. Ilmiy gipoteza barcha fanlarda qo'llaniladi. Akademiklar Shmidt va Fesenkovning koinotning kelib chiqishi, akademik N. Opa-

rinning yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy gipotezalari buning misol.

2. Gipotezaning vujudga kelish bosqichlari.

Gipotezalar ma'lum nazariya, tasavvurlar doirasiga sig'maydigan yangi faktlarni izoxlash, tushuntirib berish zaruriyatidan dunyoga keladi. Dastavval fakt, so'ngra ularning majmui tahlil qilinadi. Taxminni mustahkamlash maqsadida qo'shimcha eksperimentlar o'tkaziladi.

Shundan keyin faktlar sintez qilinib, gipoteza muayyan shaklga kiradi. Gipoteza muqaddam kashf etilgan, tajribada tasdiqlangan ilmiy qonun, nazriyalarga zid bo'lmasligi lozim. Muqobil gipotezalar paydo bo'lishi, ular o'rtasida raqobat kelib chiqishi mumkin. Gipoteza imkon qadar ko'proq faktlarni qamrab, ularni sodda izoxlab berishi kerak.

Gipoteza vujudga kelishining quyidagi bosqichlari bor:

1) Mavjud nazariyalar bilan izohlash mumkin bo'lmagan faktlarni ajratib olish.

2) Mazkur faktlarni izohlab beruvchi taxminlarni ishlab chiqish.

Hosil qilingan taxmindan kelib chiquvchi barcha xulosalarni bayon qilish.

Bu xulosalarni eksperiment natijalari, ma'lum ilmiy qonunlar bilan taqqoslash.

Bu xulosalar o'z tasdig'ini topsa, ilmiy qonunlar bilan ziddiyatga kirishmasa, gipotezani ilmiy nazariyaga aylantirish.

3. Gipotezani tasdiqlash usullari. Gipotezaning raddiyasi.

Har qanday gipoteza ertami—kechmi yo tasdiqlanadi, yo rad etiladi. Gipotezani tasdiqlashning eng ishonchli usuli mazkur hodisani keltirib chiqargan ob'ekt—hodisa yoki xossani izlab topishdir. Bunga avval taxmin qilinib, so'ngra kashf etilgan. Neptun planetasining, SHimoliy Muz okeanidagi bir kator orollarning Sibirda olmos O'zbekistonda ruda va oltin konlarining topilishi misol bo'la oladi. Gipotezani tasdiqlashning asosiy usuli—undan kelib chiqadigan hodisalarni verifikatsiyalash (sinab ko'rish)dir. Bunda qo'yilgan vazifadan kelib chiqib o'tkaziladigan eksperimentlar katta rol o'ynaydi. Masalan; onkologik kasalliklar sababini topish uchun o'nlab faraz va taxminlar sinab ko'rilgai. Gipotezani tasdiqlashning bilvosita usuli barcha noto'g'ri (yolg'on) versiyalar rad etilib, qolgan bitta versiya chinligi to'g'risida xulosa chiqarishdir. By ayniqsa, sud—tergov amaliyotida o'zini oqlaydi. Gipoteza undan kelib chiqadigan xulosalar noto'g'ri ekanligini ko'rsatish bilan rad etiladi. Vuning uchun ushbu xulosalarni inkor etuvchi faktlar izlab topiladi. Strukturasiga ko'ra, bunday raddiya destruktiv dilemma, trilemma yoki polilemma shaklida bo'ladi.

M: O'pka shamollashiga yo'liqqan kishi yo quruq yo'taladi yo biqini sanchadi yo nafas olishi mushkullashadi.

Bemorning quruq yo'talgani, yo biqini sanchgani, yo nafas olishi og'irlashgani yo'q.

Demak, bemorning o'pkasi shamollamagan.

Taqqoslaganda xulosalar qanchalik muvofiq kelmasa, gipotezani rad etish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Gipotezani to'la rad etish uchun shuncha ko'p unga zid faktlar talab qilinadi.

II qism. MANTIQUIY MASHQLAR

1. «TUSHUNCHA» mavzusi bo'yicha.

1—mashq. Quyidagi tushunchalar mazmunini sinonim so'z yoki iboralarda ifodalang:

1. Quyosh. 2. Mustaqillik. 3. Demokratiya. 4. G'olib. 5. Taraqqiyot. 6. Universitet. 7. Og'ir. 8. Jasorat. 9. Student. 10. Viloyat.

2—mashq. Quyidagi iboralarni tushunchalarga aylantiring;

1. Bilim manbai. 2. Kishi ruxining injeneri. 3. Bir—biri bilan kesishmaydigan to'g'ri chiziq. 4. Harakat va taraqqiyotning manbai. 5. Jahon xalqlari minbari. 6. Ikki daryo oralig'idagi yurt. 7. Orqaga ketish. 8. Ongimizdan tashqaridagi, unga bog'lik bo'lmagan moddiy olam.

3—mashq. Quyidagi tushunchalarning muhim belgilarini aytib bering.

1. Inson. 2. Davlat. 3. Til. 4. Falsafa. 5. Kashshof. 6. Talaba. 7. Maktab.

4—mashq. Quyidagi tushunchalarning hajmi va mazmunini ko'rsatib bering:

1. Kooperativ. 2. Hokim. 3. Tuman. 4. Birja. 5. Baynalmilalchi-jangchi. 6. Fan nomzodi. 7. Adabiyot muzeyi. 8. Farg'ona vodiysi. 9. Farishta. 10. Ideal odam.

5—mashq. Quyidagi tushunchalardan qay biri mazmunan boyroq:

1. Osiyo. Markaziy Osiyo. 2.. Jumhuriyat. Mustaqil Jumhuriyat. Mustaqil demokratik jumhuriyat. 3. Ozodlik xiyoboni. Xiyobon. 4. Badiiy adabiyot, Mumtoz badiiy adabiyot. 5. Matematika o'qituvchisi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qituvchisi.

6—mashq. Quyidagi tushunchalarning qay biri hajman kengroq:

1. Orol. Tinch okean orollari. 2. Kvant fizikasi. Fizika. 3. Savodxon odam. Odam. 4. Uchadigan ob'ekt. Samolyot. Harbiy samolyot. 5. Olim. Mashhur olim. Fan doktori.

7—mashq. Quyidagi tushunchalarga nisbatan jins tushunchalarni aniqlang.

1. «Navro'z» bayrami 2. «Qur'on». z. Umuminsoniy axloq. 4. Prezident. 5. Ko'k somsa. 6. Bozor iqtisodiyoti. 7. Biznesmen. 8. Aktsiya, 9. Bank. 10. SHirkat.

8—mashq. Quyidagi tushunchalarga nisbatan tur tushunchani aniqlang.

1. Tarix. 2. Milliy urf—odat. 3. Planeta. 4. Taom. 5. Injener. 6. Qo'lyozma. 7. Tabiat hodisasi. 8. Oliy Majlis deputati. 9. Tarbiyachi.

10. Vazir.

9—mashq. Umumiy, yakka va xajmsiz tushunchalarni toping.

1. Elektron. 2. Orol dengizi. 3. Abadiy dvigatelъ. 4. Qo`qon xoni o`rdasi. 5. Millat. 6. Ko`rinmas odam. 7. Alisher Navoiy. 8. Tush. 9. Nazariya. 10. Olmos qishlog`i.

10—mashq. Konkret va abstrakt tushunchalarni toping:

1. Insof. 2. Kompyuter. 3. Armiya. 4. Bejirim. 5. Nafrat. 6. Vatan. 7. Mehr. 8. Dotsent. 9. Og`irlik. 10. Insof.

11—mashq. Nisbatdosh va nisbatsiz tushunchalarni aniqlang:

1. Tabiat—jamiyat. 2. O`qituvchi—o`quvchi. 3. Jonivor—o`simlik. 4. Jasur—qo`rqqoq. 5. Ish—ishchi. 6. Suv—baliq. 7. Boshqarma—boshqaruvchi. 8. Tabib—bemor. 9. Qul—quldor. 10. Boy-kambag`al.

12—mashq. Ijobiy va salbiy tushunchalarni ajratib ko`rsating:

1. Xushbo`y. 2. Beodob. 3. Imonsiz. 4. Sertakalluf. 5. Kal. 6. Hissiz.

7. Dag`al. 8. Beparvo. 9. Ishonchli. 10. Saxiy.

13—mashq. Chin va yolg`on tushunchalarini aniqlang:

1. Texnika. 2. Yulduz. 3. Efir. 4. Sirdaryo. 5. Atlantida. 6. O`lmaydigan odam. 7. Metro. 8. Mutlaqo sof modda. 9. Boshsiz odam. 10. CHekli fazo.

14—mashq. Taqqoslanadigan tushunchalarni toping:

1. Adabiyot, folklor. 2. Geometrik figura, figurali uchish. 3. Falsafa, mantiq. 4. Oy tutilishi, urush. 5. Baxt, kasb. 6. Texnika, texnikum. 7. Osh, oshpaz. 8. Baliq, baliq yili. 9. Ahloq, san`at. 10. SHahar, qishloq.

15—mashq. Quyidagi tushunchalar o`rtasidagi munosabatni aniqlang va Eyler doiralarida ifodalang:

O`zbek adabiy tilining asoschisi bo`lmish Buyuk shoir; «Maxbubul—qulub» dostoni muallifi.

«Sharq mash`ali» nomini olgan shahar; O`zbekiston jumhuriyatining poytaxti.

Talabalar, yoshlar.

Dramatik asar. M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» tragediyasi.

Ijtimoiy mulk, xususiy mulk, aktsiyadorlik mulki.

Ijobiy qahramon, salbiy qahramon.

Muqimiy shoir, o'zbek, inson.

Qiyin ish, qiyin bo'lmagan ish.

O'qituvchi, pedagog, murabbiy, tarbiyachi.

Suv toshqini, tabiiy ofat, tabiat hodisasi, yong'in zilzila.

16—mashq. Quyidagi tushunchalarni umumlashtiring va chegaralang:

1. Aktsionerlik jamiyati. 2. XIX asrda yashab, ijod etgan o'zbek shoiri. 3. Qo'l. 4. Farg'ona vodiysidagi shahar markazi. 5. Tosh. 6. Talabalar guruxi. 7. O'quvchi. 8. Buyuk faylasuf. 9. Bug'doy. 10. Madaniyat saroyi.

17—mashq. Tushuncha to'g'ri chegaralanganmi:

1. Mashinasozlik zavodi ixtirochilari majlisi—mashinasozlik zavodi sakkizinchi tsexi birinchi bo'limi ixtirochilar majlisi. 2. Qurol o'quv quroli—qalam.

18—mashq. Tushuncha to'g'ri umumlashtirilganmi:

1. Botanika—biologiya-fan. 2. Odam—ongli mavjudot-ong. 3. SHahar markazi—markaz—manzil. 4. Olma daraxti—daraxt-o'simlik—tirik organizm—organizm.

19—mashq. Ta'riflash to'g'ri amalga oshirilganmi:

Til—muomala vositasi.

Mustaqillikni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash—oson emas.

Morfologiya—so'zning grammatik shakli to'g'risidagi fan.

Uchburchak—uchta burchakli geometrik shakl.

Logika—tafakkur to'g'risidagi fan.

6. Baxor—fasllar kelinchagi.

Filosofiya—«donolikni sevinch» demak.

Ong—voqelikni aks ettirishning oliy shakli.

20—mashq. Quyidagi tushunchalarga nominal va real ta'rif bering.

1. Etnografiya. 2. Bazis. 3. Ustqurma. 4. Genetika. 5. Immunologiya. 6. Ekstremist. 7. Kontrevolyutsiya. 8. Atom. 9. Ijtimoiy ong. 10. Grammatika. 11. Demokratik davlat. 12. Vijdon erkinligi. 13. Aksioma. 14. Ishlab chiqarish usuli. 15. Jinoyat. 16. Axloq.

21—mashq. Tushunchalarni bo'lish to'g'ri amalga

oshirilganmi:

Davlat funktsiyalari: ichki va tashqi.

Studentlar: ulguruvchi, ulgurmovchi va sportchi.

Jismlar: qattik, suyuq va gazsimon.

Grammatika: morfologiya va sintaksis.

Ilmiy daraja: fan nomzodi, fan doktori va akademik.

Fanlar: ijtimoiy, iqtisodiy va texnikaviy.

Rang: oq, qizil, sariq, ko'k, yoqimli, qora.

Oliy o'quv yurti: institut va universitet

22—mashq. Tushunchalarni dixotomik asosda bo'ling 1. Tabiat. 2. Jazo. 3. Mulk. 4. Kitob. 5. O'qituvchi. 6. Bilish bosqichi. 7. O'qituvchi metodi. 8. O'simta.

II. «HUKM» mavzusi bo'yicha

23—mashq. Quyidagi fikrlar hukm bo'la oladimi:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining bir yilligi.
2. Ma'nolar xazinasini. 3. Farzand—umr guli. 4. Baxilning bog'i ko'karmas. 5. Porloq kelajak. 6. Kelajak—porloq. 7- Suv-hayot. 8. SHaxrimizni gulzorga aylantiraylik.

25—mashq. Quyidagi hukmlarning sub'ekti, predikati va bog'lovchisini aniqlang:

1. Bazis birlamchi, ustqurma ikkilamchi, uning maxsuli. 2. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li bor. 3. Inson bilan tirikdir inson, muxabbatdir hayotning boshi (E. Vohidov). 4. yerdan boshqa hech bir sayyordada hayot uchqunlari yo'q. 5. Hayot biz tasavvur qilgandan ham murakkabroq. 6. Mazmunsiz shakl, shaklsiz mazmun bo'lmaydi. 7. Bolalik-beg'ubor fasl. 8. Axloq falsafadan qadimiyroq.

26—mashq. Quyidagi xukmlarning miqdor jihatdan turini aniqlang.

1. Namangan—gullar shaxri. 2. Jang qurbonsiz bo'lmaydi. 3. Xar bir inson—o'ziga yarasha olam. 4. Ayrim talabalar ilmiy to'garak ishida qatnashadi. 5. Ba'zi jumhuriyatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning shiddatli yo'lini tanladilar. 6. Xar gulning o'z xidi bor. 7. Ozodlik maydoni gullarga burkandi. 8. Hech kim Vatandan yiroq tushmasin.

27—**mashq.** Quyidagi hukmlarning sifat jihatdan turini aniqlang.

1. Tikansiz gul yo`q. 2. O`zbekiston—kelajagi buyuk davlat.
3. «Xolva» degan bilan og`iz chuchimas. 4. Ezgulikning kechi yo`q. 5. Toma-toma ko`l bo`lur. 6. Inson tafakkuri chegara bilmaydi. 7. Materiya-ob`ektiv reallik. 8. «Inson» nomi mag`rur jaranglaydi.

28—**mashq.** Quyidagi misollar hukmning qaysi turi (A, ye, 1, O) ga mansub:

1. Urf-odatlar—xalqning ma`naviy mulki.
Hech kim - va hech narsa unutilmaydi.
Har bir inson ezgu orzu—umidlar bilan yashaydi.
Ayrim talabalar o`qish uchun AQSHga jo`nab ketdi.
Ayrim ishchilar ratsionalizator emas.
Bolalar—kelajagimiz.
Hech kim o`ziga yomonlik tilamaydi.
SHimoliy viloyatlarda qor yog`ishi kutiladi.

29—**mashq.** Quyidagi hukmlarda terminlarning taqsimlanishini aniqlang:

1. Ba`zi kishilar ishga kechikib keladilar.
Ayrim sportchilar sport ustasi emas.
Ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi.
Chorshanba—haftaning uchinchi kuni.
Ayrim kishilar matematikaga qiziqmaydi.
6. Jo`jani kuzda sanaydilar.

30—**mashq.** Quyidagi murakkab hukmlarning turini aniqlang, formula hamda sxemasini keltiring:

1. Yigitning uyi tinch bo`lsa, ko`ngli ham tinch bo`ladi.
2. Maktab bitiruvchisi yo o`qishga kiradi, yo ishga joylashadi.
3. Qatorda noring bo`lsa, yuking yerda qolmaydi.

Tannarxni kamaytirish uchun yo mehnat unumdorligini oshirish yo hom ashyo sarfini kamaytirish kerak.

Istiqlol—bobolarimiz armooni, zamondoshlarimiz maslagi va far-zandlarimiz istiqboli.

6. Mohiyat xodisasiz, hodisa mohiyatsiz bo`lmaydi.

7. Xozirgi zamon geometriyasiga ko`ra, uchburchak ichki burchaklar yig`indisi yo 186 gradus, yo undan kichik yo undan katta.

8. Inqilobchilar oldida ikki yo`l bor: yo ozodlik, yo o`lim.

9. Assimilyatsiyasiz dissimilyatsiya bo`lmaydi va aksincha.

31—mashq. «Mantiqiy kvadrat» yordamida A, ye, I, O hukmlar. o`rtasidagi munosabatni aniqlang:

a) Barcha talabalar—intizomli.

Ayrim talabalar—intizomli.

Hech bir talaba intizomli emas.

b) Ayrim faylasuflar materialist emas.

Ayrim faylasuflar materialist.

Hech bir faylasuflar—materialist emas.

Barcha faylasuflar materialist.

32—mashq. «Mantiqiy kvadrat»dan quyidagi hukmlar bilan munosabatga kirishuvchi qolgan uch turini aniqlang:

a) O`zbekistonning ayrim viloyatlarida qorakul terisi yetishtiriladi.

b) Ayrim yozuvchilar—dramaturg.

v) Barcha o`qituvchilar ilg`or pedagogik tajribadan foydalanadi.

g) Hech bir jamiyat ziddiyatlardan holi emas.

33—mashq. Quyidagi hukmlarda ifodalangan moddallik turini aniqlang:

1. Qo`qon Davlat pedagogika institutida to`rt mingdan ziyod talaba tahsil oladi.

Ehtimol, bugungi qiyinchiliklar ertaga bir tushdek tuyular.

Yigit kishiga yetmish hunar oz.

Balki u ham meni o`ylayotgandir.

Samarqand—qadimiy obidalar shahri.

Vatan ostonadan boshlanadi.

7. Ona—yurt farovonligi yo`lidagi sharaflı mehnat—har bir fuqaro-ning burchi.

8. Siz kutgan odam tushdan so`ng kelib qolishi mumkin.

9. Har haftaning so`nggi kuni—dam olish.

10. Kitob olti bobdan iborat.

III. «XULOSA CHIQARISH» MAVZUSI BO`YICHA

34—mashq. Quyidagi hukmlardan almashtirish yo`li bilan xulosa chiqaring:

1. Ilm—aql chirog`i. 2. Materiya-ob`ektiv reallik. 3. Sotsiologiya— jamiyat to`g`risidagi fan. 4. Fitrat—«Abulfayzxon» fojeasining muallifi. 5. Istiqlool—har bir erkparvar millatning azaliy orzusi. 6. Turkiya—tili, urf—odatlari bizga yaqin bo`lgan davlat.

35—mashq. Quyidagi hukmlardan aylantirish yo`li bilan xulosa chiqaring:

1. Mehnat—roxat. 2. Tashvishsiz odam yo`q. 3. Bolalarsiz kelajak bo`lmaydi. 4. Materializm materiyanı birlamchi deb biladi. 5. Har boshda bir o`lim bor. 6. Imonsiz odam g`aribdir.

36—mashq. Quyidagi hukmlardan predikatga qarama—qarshi qo`yish yo`li bilan hamda «mantiqiy kvadrat» bo`yicha xulosa chiqaring:

1. Ayrim o`qituvchilar—xalq maorifi a`lochisi. 2. Bizning guruximizdagi xech bir talaba tennis o`ynashni bilmaydi. 3. Ayrim avtomobillar gaz yonilg`isi bilan yuradi.

37—mashq. Quyidagi sillogizmning turini aniqlang va formulasini keltiring.

1. Agar yurt osoyishta bo`lsa, barcha muammolar hal qilinadi.

YUrtda osoyishtalik hukmron.

Demak, hamma muammolar hal qilinadi.

2. Bemorning ahvoli og`irlansa, «Tez yordam» chaqiriladi.

«Tez yordam» chaqirilmadi.

Demak, bemorning ahvoli og`irlashgani yo`q.

3. Agar o`qituvchi kelsa, dars boshlanadi.
Dars boshlansa, yangi mavzu o`tiladi.

Demak, o`qituvchi kelsa, yangi mavzu o`tiladi.

38—mashq. Quyidagi sillogizmning turini aniqlang va xususiyatlarini aytib bering:

1. Talaba yo kunduzgi bo`limda, yo sirtqi bo`limda o`qishi mumkin.

Mazkur talaba sirtqi bo`limda o`qimaydi.

Demak, bu talaba kunduzgi bo`limda o`qiydi.

Demak, Abdullaev manzilga samolyotda ham, avtobusda ham bormaydi.

3. Agar biz mehnat unumdorligini o`stirish yo`lidan borsak, mahsulot

tannarxi pasayib, oxir-oqibatda uning bahosi ham arzonlashadi.

Agar biz mehnat unumdorligini o`stirish to`g`risida o`ylamasak, u holda mahsulot tannarxi oshib boraveradi va bu narx-navoning yanada qimmatlashuviga olib keladi.

2. Manzilga yo samolyotda, yo poezdda yo avtobusda boriladi.

Abdullaev manzilga poezdda bormoqchi.

Biz mehnat unumdorligini o`stirish yo`lidan borishimiz kerak.

Demak, mahsulot tannarxi pasayib, uning baxosi arzonlashuvi yuz beradi.

4. Agar mafkura jamiyatga nisbatan ijobiy ta`sirda bo`lsa jamiyatning taraqqiyoti tezlashadi; agar mafkura jamiyatga zid bo`lsa, u xolda jamiyatning taraqqiyoti sekinlashadi; agar mafkura jamiyatga befarq munosabatda bo`lsa, unda jamiyatning rivojlanishi noaniq bo`ladi.

Bizning istiqlool mafkuramiz jamiyatga ijobiy ta`sirda, uning rivojlanishidan manfaatdor.

Demak, jamiyatimiz taraqqiyoti tezlashadi.

39—mashq. Quyidagi entitiemalarning tushirib qoldirilgan qismlarini to`ldirib, to`liq qat`iy sillogizm ko`rinishga keltiring:

1. Har qanday o`simlik singari g`uzaning o`sishi uchun ham suv kerak. 2. Faxriylar jamiyatimiz ta`sis etgan ko`plab imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega siz esa faxriysiz.

3. Abdullaev ustama qo`shilgan stipendiya oladi, chunki u a`lochi.

40—mashq. Quyidagi xulosa chiqarishning turini aniqlang va sxemasini keltirib, izoxlab bering:

1. Uglevodorodlar—organik birikmalar.
Metan—uglevodorod.

Organik birikmalarni organik kimyo fani o`rganadi.

Metan—organik birikma.

Metan—organik birikma.

Metanni organik kimyo fani o`rganadi.

Ot nutqning mustaqil bo`lagidir.

Atoqli ot—ot xisoblanadi.

SHaharning nomi—atoqli ot.

Poytaxtning nomi—shahar nomidir. «Toshkent»—poytaxtning nomi.

«Toshkent» nutqning mustaqil bo`lagi.

3. Rizq—ro`z yetishtirish—olijanob ish.

Bobodehqonning ishi—rizq-ro`z yetishtirishdan iborat.
Bobodehqonning ishi—olijanob ish.

Olijanob kishilar—hurmatga sazovor. Bobodehqonning ishi—olijanob ish. Bobodehqonning ishi—xurmatga sazovor.

4. Barcha o`qituvchilar—pedagog.
Barcha pedagoglar—ustoz.

Barcha ustozlar o`z shogirdlariga ta`lim va tarbiya beradi.

O`z shogirdlariga ta`lim va tarbiya bergan barcha ustozlar ular qalbini chuqur xis qilishi darkor.

Barcha o`qituvchilar shogirdlar qalbini chuqur xis qilishi darkor.

41—mashq. Quyidagi epixeyremalarni taxlil qiling, xatosi bo`lsa, to`g`rilang:

1. Har qanday jinoyat qonun tomonidan jazolanadi, negaki, u jamiyat uchun xavf tug`diradi.

Bosqinchilik jinoyatdir, chunki bosqinchilik fuqarolar mulkini ochiqdan—ochiq talon—taroj qilishdan iborat. Bosqinchilik qonun tomonidan jazolanadi.

2. Barcha o`simliklar oranizmlardir, chunki barcha o`simliklar oziqlanadi.

Barcha butalar—o`simliklardur, chunki ularning barchasi

fotosintez xususiyatiga ega.

Barcha butalar—organizmlardir.

3. Organizmni chiniqtirish foydali ishdir, negaki organizmni chiniqtirish kasallikning oldini oladi.

Ertalabki badantarbiya organizmni chiniqtirishdir, chunki ertalabki badantarbiya sogʻliqni mustahkamlaydi.

Ertalabki badantarbiya foydali ishdir.

42—mashq. Quyidagi induktiv xulosa chiqarishlarni toʻliq induksiya deyish mumkinmi:

Toshkent. Namangan. Andijon, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlarida dehqonchilik ishlari yaxshi ketmoqda. Demak, Oʻzbekistonning barcha viloyatlarida dehqonchilik ishlari yaxshi ketmoqda.

Tabiiy fanlarda ham, ijtimoiy fanlarda ham, texnika fanlarida ham asosiy maqsad—dunyoni bilishdan iborat. Demak, fanning asosiy vazifasi—dunyoni bilishdan iborat.

3. «Navroʻz» bayrami bahorda nishonlanadi. Xalqaro xotin—qizlar bayrami bahorda nishonlanadi.

1. May bayrami bahorda nishonlanadi.

Demak, hamma bayramlar bahorda nishonlanadi.

4. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino—SHarq Uygʻonish davrining buyuk allomalaridir. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino—Markaziy Osiyolik. Demak, hamma SHarq Uygʻonish davri allomalari Markaziy Osiyolikdir.

43—mashq. Quyidagi misollar ommaviy induksiya boʻla oladimi:

Yov qochsa, botir koʻpayadi.

Uchqundan alanga chiqadi.

Milliy gʻoya—millat timsoli.

Qari bilganni pari bilmas.

6. Qish iliq kelsa, bahor sovuq keladi.

5. Suvda oltingugurt tuzi koʻp boʻlsa, sovun yaxshi

ko`pirmaydi.

7. Kechqurun shafaq qizg`ish tovlanib tursa, shamol bo`ladi.

44—mashq. Quyidagilar ilmiy induntsiyaga misol bo`la oladimi?

Materiya harakatining mexanikaviy, fizikaviy, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllari bo`lib, ularning har biri o`zidan keyingi xarakat shakli tarkibiga kiradi. Demak, materiya xarakati shakllari bir-biri bilan bog`langandir.

Qadimgi yunon mutafakkiri Demokrit olamni eng mayda, bundan keyin bo`linmas zarrachalar—«atom»lardan iboratligini faraz qilgan edi. XIX asr oxiri—XX asr boshlarida tabiiyot fani materiyaning eng mayda zarrachalari atomlar emas, balki uning ichki strukturasi tashkil etuvchi elektronlar ekanligini ilmiy asoslab berdilar. Hozirgi kunda elektronlardan ham maydaroq 300 dan ortiq elementar zarracha borligi aniqlangan. Demak; materiyaning tabiiy—ilmiy manzarasiii yaratish ishlari hali davom etadi.

Ijtimoiy ong shakllari xilma-xil bo`lib, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy, siyosiy va huquqiy ongdan iborat. Bu ong shakllarining har qaysisi ijtimoiy borliqni faqat o`zi uchun xos bo`lgan aks ettirish usuli bilan ifodalab beradi. Demak, barcha ong shakllari voqelikning in`ikosidan iborat.

45—mashq. Quyidagi analogiya bo`yicha chiqarilgan xulosalarning turini aniqlang:

Quyosh tarkibida shu vaqtgacha noma`lum geliy elementi borligi aniqlandi. yer va Quyoshning kimyoviy tarkibi o`xshashligidan Quyosh tarkibida topilgan geliy elementi yerda ham bo`lishi kerak degan taxmin ilgari surildi. Keyingi tadqiqotlar bunday elementning yer tarkibida ham uchrashini tasdiqladi.

XVII acp boshlarida tabiiyotshunoslar tovush nimaligini chuqur o`rganib chiqishdi. Ular tovushning yoyilish mexanizmi, tovush bilan yorug`lik o`rtasida, ularning tabiatida ko`plab o`xshash tomonlar borligidan kelib chiqib yorug`lik ham tovush singari o`z tabiatiga ko`ra to`lqinli xodisadir degan xulosaga keldi.

Poydevor qanday yaratilgan bo'lsa, uning ustiga tiklanadigan imorat ham huddi shunday bo'ladi, poydevor bino uchun asos rolini bajaradi. Iqtisod va jamiyat o'rtasidagi munosabat poydevor bilan imorat o'rtasidagi munosabatga o'xshashdir; jamiyatning qanday bo'lishini iqtisod belgilab keladi, shu ma'noda poydevor bo'lmasa, imorat bo'lmaganidek, jamiyat iqtisodsiz yuzaga chiqqa olmaydi.

4. Qush uyasida ko'rganini qiladi, farzand—oilada.

5. Mashxur rus olimi Talizin perkurssiya (tik—tik urib ko'rish) metodini kashf etgan olim xisoblanadi. U bir xil to'ldirilmagan bochkalarni urib ko'rganda turlicha ovoz chiqishidan bu inson tabiati uchun ham xos bo'lishi kerak, degan taxmin bilan tajribalar o'tkaza

boshlagan. Darxaqiqat, perkussiya metodini buyumlarga nisbatan emas, insonga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'lib chiqdi.

6. Buyuk soxibqiron bobomiz Temur davrida Movaronnaxr mustaqil davlat bo'lib, uning qudrati, sha'nu—shavkati olamaro mashhur bo'lgan, iqtisodiyoti, fani va madaniyati gullab—yashnagan, fuqarolari farovon hayot kechirganlar. O'zbekiston uzoq yillik totalitar tuzum kishanlaridan xalos bo'lib, mustaqil demokratik davlatga aylandi, u jaxon hamjamiyatidan o'z o'rnini egallab bormoqda, hayotning barcha soxalarini qamrab olgan ko'p qirrali islohotlar dadil amalga oshirilmoqda. Tarix takrorlanmoqda. Demak, O'zbekiston—kelajagi buyuk davlat.

II qism. MANTIQ FANIDAN TESTLAR

JORIY NAZORAT UCHUN

I. «MANTIQ FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI» MAVZUSI BO'YICHA:

1. «Logika» atamasi qaysi tildan olingan?

A. — Lotin tilidan.

B. — O'zbek tilidan.

- C. —Yunon tilidan.
- D. —Arab tilidan.
- E. —Rus tilidan.

2. Mantiq fani tarixidagi asosiy tizimlarni aniqlang:

- A. —Arab va fors mantig'i.
- B. —Rus va slovyan mantig'i.
- C. —Hind va yunon mantig'i.
- D. —Xitoy va yapon mantig'i.
- E. —Nemis va ingliz mantig'i.

3. Logikadan birinchi maxsus asar yozgan atoqli yunon faylasufi kim?

- A. —Sokrat.
- B. —Platon.
- C. —Demokrit.
- D. —Aristotel.
- E. —Epikur.

**4. Aristotel mantiqiy fikrlashning asosiy qonunlarini qaysi asari-
da bayon etgan?**

- A. —«Ritorika».
- B. —«Fizika».
- C. —«Kategoriya».
- D. —«Topika».
- E. —«Metafizika».

5. Aristotelning «Organon» asari necha kitobdan iborat?

- A. —To'rt.
- B. —Besh.
- C. — Olti.
- D. — yetti.
- E. —Sakkiz.

6. Markaziy Osiyolik birinchi mantiqshunos olim kim?

- A. — Abu Ali ibn Sino.
- B. — Abu Nasr Forobiy.
- C. — Abu Rayxon Beruniy.
- D. — Shamsiddin Samarqandiy.
- E. — Abdulloh Xorazmiy.

7. Abu Ali ibn Sinoning mantiq ilmiga oid ilk asari qanday nomlanadi?

- A. — «Donishnoma».
- B. — «Kitob ash-shifo».
- S. — «Mantiq haqida doston».
- D. — «As-safsata».
- E. — «Al-xitoba».

8. Abu Nasr Forobiy matniq ilmi rivojining asosiy bosqichlarini qaysi asarda bayon etgan?

- A. — «Falsafaning kelib chiqishi».
- B. — Mantiq ilmiga kirish».
- C. — «Aql xaqida».
- D. — «Silloqizm».
- E. — «Mantiq to`g`risidagi risolaga muqaddima»

II. «TUSHUNCHA» MAVZUSI BO`YICHA

9. Quyidagi misollardan tushunchalarni toping:

- A. — O`zbekiston Respublikasi. Bilim manbai.
- B. — O`zbekiston Jaxon xalqlari minbari.
- C. — Tong. Jahon xalqlari minbari.
- D. — XXI acp. «Ona va bola» yili.
- E. — Olg`a! YAshasin tinchlik!

10. Hukmlarni aniqlang:

- A. — Siz Konstitutsiyani bilasizmi?
- B. — Yarim kecha. Sovqotmadingizmi?

- C. — Mehnatsiz rohat bo'ladimi?!
- D. — O'qi! Terimga otlaning!
- E. — Ma'nolar xazinasini. Nonni isrof qilmang.

11. Jins tushunchalarni toping:

- A. — Badiiy adabiyot. Qo'qon. She'riyat.
- B. — Fan. Farg'ona. Drama.
- C. — Qirg'iziston. O'sh. Proza.
- D. — Respublika. Shahar. Adabiyot.
- E. — Pedagog. O'qituvchi. Tarbiyachi.

12. Tur tushunchalarni aniqlang?

- A. — Talaba. Vodiy. Oliy o'quv yurti!
- B. — O'zbek talabasi. Universitet. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- C. — Sirdaryo. Texnikum. Ta'lim to'g'risidagi qonun.
- D. — Milliy mafkura. Farg'ona vodiysi. Institut.
- E. — Kollej talabasi. Matematika muallimi. Falsafa.

13. Qay tushuncha mazmunan boyroq?

- A. — Pedagog.
- B. — Tarbiyachi.
- C. — O'qituvchi.
- D. — Til-adabiyot o'qituvchisi.
- E. — Boshlang'ich sinflarda til-adabiyot o'qituvchisi.

14. Qay tushuncha hajman keng?

- A. — Samolyot.
- B. — Xarbiy samolyot.
- C. — Yuk tashuvchi samolyot.
- D. — Uchuvchi jism.
- E. — «Tu-154» samolyoti.

15. Sig'ishadigan tushunchalarni aniqlang?

- A. — Qizil, qora.

- B. —O`zbek romanchiligi asoschisi, Julqunboy.
- C. —Achchiq, shirin.
- D. —Ziyoli, o`qituvchi.
- E. —Mafkura, siyosat.

16. Sig`ishmaydigan tushunchalarni toping?

- A. —Ko`ngil, yurak, qalb.
- B. —Pedagog, muallim, tarbiyachi.
- C. — Viloyat, tuman, rayon.
- D. —Olim, o`zbek, ziyoli,
- E. — Istiqlol, mustaqillik, suverenitet.

17. Tushunchalar to`g`ri umumlashtirilganmi:

- A. —Botanika-biologiya-fan.
- B. —Odam-ongli mavjudot—ot.
- C. — Shahar markazi-markaz-manzil.
- D. —Markaziy Osiyo-Osiyo-SHarq.
- E. —Ma`naviyat-ma`rifat-mafkura.

18. Tushunchalar to`g`ri chegaralanganmi:

- A. —Maktab-oliy maktab—o`rta maktab.
- B. —Adabiyot—SHarq adabiyoti-o`zbek adabiyoti.
- C. — Raqam—juft raqam-toq raqam.
- D. —Qishloq xo`jaligi—chorvachilik-dehqonchilik.
- E. —Ijobiy qahramon—salbiy qahramon qahramon.

19. Tushunchani ta`riflash to`g`ri amalga oshirilganmi:

- A. —Falsafa—tabiat, jamiyat va tafakkur to`g`risidagi fan.
- B. —Mexanizator—«zangori kema» kapitani.
- S —Kitob-o`qiladigan buyum.
- D. —Filologiya—tilni sevmiq demak.
- E. —Mehnat qilish oson emas.

20. Tushuncha to`g`ri bo`linganmi:

- A. — Mutaxassislar: tajribali, yetakchi, yosh.
- B. —Jismlar: qattiq, suyuq, gazsimon.
- C. —Fanlar: ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy.
- D. —Bilimlar: qadimiy, zamonaviy, falsafiy.
- E. —Insonlar: yaxshi, yomon, keksa.

21. Qo`shilgan tushunchalarni aniqlang?

- A. —Aerofizika.
- B. — Ma'furaviy immunitet.
- C. —Paxtazor.
- D. —Kinoteatr.
- E. —G'allakor.

22. Umumiy tushunchalarni toping:

- A. —Milliy g'oya.
- B. — Ma'naviyat.
- S. — Qorbobo.
- D. — Badiiy adabiyot.
- E. — Ideal shaxs.

23. Yakka jamlanma tushunchani toping:

- A. —Insoniyat.
- B. — Ma'naviy kamolot.
- C. —Davlat.
- D. — Siyosiy tizim.
- E. — Kutubxona.

24. Umumiy jamlanma tushunchani aniqlang?

- A. —Milliy xalq hunarmandchiligi.
- B. —Farg'ona vodiysi, viloyatlari.
- C. —Boltiq bo`yi respublikalari.
- D. —Muzyorar kema.
- E. —O'rmon.

ORALIQ NAZORAT UCHUN

III. «HUKM» MAVZUSI BO'YICHA

1. Atributov hukmni aniqlang:

- A. —Milliy mafkura—istikbol mash'ali,
- B. —Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas.
- C. —Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.
- D. —Er—planeta.
- E. —Aql bo`y bilan o'lchanmas.

2. Munosabat hukmini aniqlang:

- A. —Ma'naviyat va ma'rifat—suv bilan havodek zarur.
- B. —Er quyosh atrofida aylanadi.
- S. —Qizlar yigitlardan ko'ra a'lochi.
- D. —Aql yoshda emas.
- E. —Kun uzoq cho`zildi.

3. Mavjudlik hukmini aniqlang:

- A. —Muhabbat yo`q ekan dunyoda.
- B. —San'at xalqniki.
- C. —Birlashgan-o`zar.
- D. —Odamni ersang, demagil odami. onikim yo`q xalq g`amidin g`ami.
- E. —Urf-odatlar—xalqning ma'naviy mulki.

4. Birlashtiruvchi (kon'yunktsiya) hukmni toping:

- A. —Ko`pchilik o`quvchilar—a'lochi.
- B. —Kuchimiz—ahillikda.
- C. —Birniki-mingga. mingniki—tumanga.
- D. —Alisher Navoiy—o`zbek adabiy tilining asoschisi va yirik davlat arbobi.
- E. —Toshkent—O`zbekiston Respublikasining poytaxti.

5. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmini belgilang:

- A. —Iqtidorli yoshlar — kelajak meъmorlari.

- B. — Hamma ham orzu-umidlar bilan yashaydi.
- C. — Inson yo safsatabozlikdan voz kechishi kerak, yo haqiqatni aytish kerak.
- D. — Ezgulikning kechi yo`q.
- E. — Namangan—gullar shahri.

6. Shartli (implikativ) hukmni toping:

- A. Mafkura bo`lmasa, davlat, jamiyat boshini yo`qotadi.
- B. — Baxilning bog`i ko`karmas.
- C. — Farzand—umr guli.
- D. — SHahrimizni gulzorga aylantirayik.
- E. — Astoydil tayyorlanilsa, imtihondan muvaffaqiyatli o`tish mumkin.

7. Ekvivalentsiya hukmini aniqlang:

- A. — Mazmunsiz shakl yo`q, shaklsiz—mazmun.
- B. — qiyinchiliklar- o`tkinchi.
- C. — Tong otmasa, kun chiqmas, kun chiqmasa, tong otmas.
- D. — O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li bor.
- E. — Ahloq falsafadan qadimiyoqdir, falsafa-ahloqdan.

8. Ehtimoliy hukmni belgilang.

- A. — Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o`zbekim.
- B. — Har gulning o`z hidi bor.
- C. — Ehtimol, bu bizning gunohlarimiz uchun yuborilgan jazodir.
- D. — Balki bu gal ham omad bizga kulib boqar.
- E. — Vatandin yaxshi yor bo`lmasa.

9. Voqeiy hukmni toping:

- A. — Hech kim, hech narsa unutmaydi.
- B. — Albatta, O`zbekistonning kelajagi—buyuk!
- C. — Ayrim kishilar matematikaga qiziqmaydi.
- D. — Ba`zilar darsga kech keladi.
- E. — Ertaga qor yog`ishi kutilyapti.

10. Zaruriy (apodiktik) hukmni aniqlang?

- A. —Jo`jani kuzda sanaydilar.
- B. —Toma-toma ko`l bulur.
- C. —Tun ortidan tong kelar.
- D. —Juma-muborak kun.
- E. —Vatan ostonadan boshlanadi.

IV. «TO`G`RI FIKRLASHNING ASOSIY QONUNLARI» MAVZUSI BO`YICHA

11. Quyidagi misollardan qay birida ayniyat konuni buzilgan?

- A. —B. Marg`iloniy—huquqshunos, shoir va alloma.
- B. —Qalb, yurak, dil.
- C. —Jasur-botir-dovyurak.
- D. —Poytaxt, eng katta shaxar.
- E. —Sirdaryo, Jayxun.

12. Ushbu misollardan qay birida nozidlik qonuni buzilgan?

- A. —Umr qisqa, ammo ko`p ishga ulgurish mumkin.
- B. —Har to`kisda bir ayb, ammo ideal shaxs ham bor.
- C. —Bozor iqtisodiyoti davrida bozorlar ko`payishi tabiiy.
- D. —Tadbirkorlik—ishbnlarmonlikdir.

13. Quyidagi misollardan qay birida uchinchi istisno qonuni amal qiladi?

- A. —Materializm va idealizm—ikki falsafiy yo`nalish.
- B. —SHahardagi binolar yo baland yo past.
- C. —Suhbat maroqli o`tdi, ammo ba`zilar uxlab o`tirdi.
- D. —Bu kitob qiziqarli, ammo ayrim boblari qiziqish uyg`otmaydi.
- E. —Ushbu asar, ayrimlarni- xisobga olmasa, hammaga yoqdi.

14. Ushbu misollardan qay birida yetarli asos qonuni amal

qilmaydi?

- A. —Darslarda qatnashmagan talaba baho olmaydi, chunki reyting usuli joriy etilgan.
- B. — Ongli mavjudot bo'lgani uchun inson fikrlaydi.
- C. —Qor qishda yog'adi, chunki qish qahraton fasl.
- D. —Suv 100 daraja issiqda qaynaydi, chunki tajriba shuni ko'rsatadi.
- E. — $5 \times 5 = 25$, chunki 24 ham, 26 ham emas.
- V. «HUKM» mavzusi bo'yicha.

15. «Hamma muallimlar, ziyolilardir» hukmidan almashtirish yo'li chiqarilgan qaysi-xulosa to'g'ri?

- A.—Muallimlar-ziyolilardir.
- B. —Ziyolilarning bir chismi muallimlardir.
- C.—Muallimlar—ziyolilarning bir qismidir.
- D. —Barcha ziyolilar muallimlardir.
- E. — Muallimlarning bir qismi ziyolilardir.

16. «Mehnat qilish qiyin». hukmidan aylantirish. yo'li bilan chiqarilgan qaysi xulosa to'g'ri?

- A. —Qiyin ish—mehnat.
- B. — Mehnat qilish oson emas.
- C. — Mehnat qilish qiyin emas.

17. «Tashvishsiz odam yo`q» hukmidan qarama-qarshi qo`yish yo`li bilan chiqarilgan qaysi xulosa to`g`ri?

- A. —Odam tashvishsiz bo`lmaydi.
- S. —Har bir odamda tashvish bo`ladi.
- D. —Odamning tashvishsizi bo`lmaydi.
- E. —Hammaning o`z tashvishi bor.

18. «Ayrim avtomobillar gaz yonilg`isi bilan yuradi» hukmidan «mantiqiy kvadrat» bo`yicha umumiy tasdiq hukmini toping:

- A. —Hech bir avtomobil gaz yonilg`isi bilan yurmaydi.
- B. —Ba`zi avtomobillar gaz yonilg`isi bilan yuradi.
- C. —Avtomobillarning ayrimlari gaz yonilg`isi bilan yuradi.
- D. —Avtomobillar gaz yonilg`isi bilan yuradi.

YAKUNIY NAZORAT UCHUN

1. Atributov hukmini aniqlang:

- A. —Talabalik yillarim mening.
- B. —O`zbekiston XXI asrda.
- C. — O`zbekiston—mustaqil davlat.
- D. — Qo`qon-fozillar faxri, olimlar shahri.
- E. — Islom—dinimiz, e`tiqodimiz.

2. Munosabat hukmini aniqlang:

- A. —Samarqand—qadimiy shahar.
- B. —Milliy an`analar-faxrimiz.
- S. — Ahloq falsafadan qadimiyroq.
- D. —Insof va iymon—ma`rifatli inson ziynati.
- E. —Inson sha`ni har narsadan ulug`.

3. Mavjudlik hukmini aniqlang:

- A. —Har yerda bor toshu—tarozu.
- B. —Mavjud davlatlarning hammasi ham mustaqil emas.
- C. —Bordan yo`q bo`lmaydi, yo`qdan bor.
- D. —Bormisan, azizim, qadrdon do`stim!

E. —Bor ekanda, yo`q ekan.

4. Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukmni toping:

A. —Birlashgan o`zar.

B. —Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

C. — I. A. Karimov—ma'naviyat xomiysi va yurt raxnamosi.

D. —Davr, adabiyot, kahramon.

S. — Sabot va matonat.

5. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmni toping:

A. — Qabohat yohud 16 fevral voqealari kimlarga kerak?!

B. — YAna qaytib kelmasmikin yo?

C. —YO siz keling, yo men boray.

D. — O`qishga kirmoqchi bo`lsang yo yaxshi o`qi, yoki repetitor bilan shug`ullan.

E. —Bahsda yo toshkentliklar g`olib chiqadi yo farg`onaliklar.

6. SHartli (implikativ) hukmni toping:

A. —Xar kimki yomon bo`lsa, jazo topqusidir.

B. —Borsa kelmas.

C. —Ekkaningni o`rasan.

D. —Bordim, ko`rishdim, gaplashdim.

E. —Xar kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o`rgatolmas hech bir muallim.

7. Ekvivalentsiya hukmni aniqlang:

A. —Jon chekmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do`lona qayda?!

B. —Inson tabiatga ta'sir ko`rsatadi, tabiat—insonga.

S. — Xunar, xunardan unar.

D. —Ilmsiz taraqqiyot yo`q, taraqqiyotsiz kelajak.

E. —Ona bilan bola-gul bilan lola.

8. Ehtimoliy hukmni toping:

A. — Butun bo`lakdan katta.

B. — Aftidan, o`tish davri uzoqqa cho`ziladi.

- C. —Jinoyat jazosiz qolmaydi.
D. —Marsda hayot bormikin.
E. —Qaniydi, XXI asr ma'rifat asri bo'lsa!

9. Voqeyiy hukmni toping:

- A. —Sen mudom yodimdasan, jigarim.
B. —Kelgusi avlod bizdan baxtliroq, aqlliroq, madaniyatliroq, bo'lishi shart.
S. —Ayrim kishilar san'atga qiziqmaydi.
D. —Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.
E. —Mustaqillik-kurash demak.

10. Zaruriy hukmni aniqlang:

- A. — O'zbekiston albatta yuksalish yo'liga tushadi.
B. —Tarbiya—hayot-mamot masalasi.
C. —Vatanni faqat boyligi uchun sevmaydilar.
D. —Er o'z o'qi va quyosh atrofida aylanadi.
E. — O'qituvchilik sharaflilik kasb.

11. Qaysi tushunchalar ayniyat?

- A. —X. X. Niyoziy ma'rifatparvar adib.
B. —Kun, tun.
S. —Jasur, dovyurak.
D. —O'zbekistondagi eng katta shahar. Toshkent.
E. —YO'zuvchi, qalamkash.

12. Qay tushunchalar o'zaro zid?

- A. —Organik kimyo. Noorganik kimyo.
B. —Badiiy asar. Ilmiy asar.
C. —Keng ko'cha. Tor ko'cha.
D. —Oq qog'oz. Qora qog'oz.

13. Ushbu fikrlardan qay biri yetarli asosga ega?

- A. — Darsga yaxshi qatnashmagan talaba baho ololmaydi.

- B. —Inson fikrlaydi, chunki u ongli mavjudot.
- C. —Vahor-seryog`in fasl.
- D. —Milliy mafkurasiz jamiyat yo`lini yo`qotadi.

14. «Hamma muallimlar ziyolilardir» hukmidan almashtirish yo`li bilan qay o`rinda to`g`ri xulosa chiqarilgan:

- A. —Ziyolilarning bir qismi muallimlardir.
- B. —Ziyolilar muallimlar hisoblanadi.
- C. —Muallimlarning bir qismi ziyolilardir.

15. Quyidagi misollar analogiya bo`yicha xulosa chiqarishga asos bo`ladimi?

- A. —Qush uyasida ko`rganini qiladi, farzand oilada.
- B. —Onasini ko`rib, qizini ol.
- C. —Mafkura tizim bo`lsa, g`oya o`zaq qismdir.

16. Quyidagilar ilmiy induktsiyaga misol bo`la oladimi?

- A. — Kitob-oftob.
- B. —Bulbul chamanni sevar, odam—Vatanni.
- C. —Suv—hayot.
- D. —Atom elektronlardan tuzilgan.

17. Mavjudlik hukmini aniqlang

- A. —Har yerda bor toshu—tarozu.
- B. —Mavjud davlatlarning hammasi ham mustaqil emas.
- C. —Bordan yo`q bo`lmaydi, yo`qdan bor.
- D. —Bormisan, azizim, qadrdon do`stim!
- E.—Bor ekanda, yo`q ekan.

18. Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukmni toping:

- A. —Birlashgan o`zar.
- B. —Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
- C. — I. A. Karimov—ma`naviyat xomiysi va yurt raxnamosi.
- D. —Davr, adabiyot, kahramon.
- S. — Sabot va matonat.

19. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmni toping:

- A. — Qabohat yohud 16 fevralʼ voqealari kimlarga kerak?!
- B. — YAna qaytib kelmasmikin yo?
- C. — YO siz keling, yo men boray.
- D. — O`qishga kirmoqchi bo`lsang yo yaxshi o`qi, yoki repetitor bilan shu -g`ullan.
- E. — Bahsda yo toshkentliklar g`olib chiqadi yo farg`onaliklar.

20. SHartli (implikativ) hukmni toping:

- A. — Xar kimki yomon bo`lsa, jazo topqusidir.
- B. — Borsa kelmas.
- C. — Ekkaningni o`rasan.
- D. — Bordim, ko`rishdim, gaplashdim.
- E. — Xar kimki hayotdan olmasa ta`lim, unga o`rgatolmas hech bir muallim.

21. Ekvivalentsiya hukmni aniqlang:

- A. — Jon chekmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do`lona qayda?!
- B. — Inson tabiatga ta`sir ko`rsatadi, tabiat—insonga.
- S. — Xunar, xunardan unar.
- D. — Ilmsiz taraqqiyot yo`q, taraqqiyotsiz kelajak.
- E. — Ona bilan bola-gul bilan lola.

22. Ehtimoliy hukmni toping:

- A. — Butun bo`lakdan katta.
- B. — Aftidan, o`tish davri uzoqqa cho`ziladi.
- C. — Jinoyat jazosiz qolmaydi.
- D. — Marsda hayot bormikin.
- E. — Qaniydi, XXI asr ma`rifat asri bo`lsa!

23. Voqeyiy hukmni toping:

- A. — Sen mudom yodimdasan, jigarim.

- B. —Kelgusi avlod bizdan baxtliroq, aqlliroq, madaniyatliroq, bo`lishi shart.
- S. —Ayrim kishilar san'atga qiziqmaydi.
- D. —Oyni etak bilan yopib bo`lmaydi.
- E. —Mustaqillik-kurash demak.

24. Zaruriy hukmni aniqlang:

- A. — O'zbekiston albatta yuksalish yo`liga tushadi.
- B. —Tarbiya—hayot-mamot masalasi.
- C. —Vatanni faqat boyligi uchun sevmaydilar.
- D. —Er o'z o`qi va quyosh atrofida aylanadi.
- E. — O`qituvchilik sharaflı kasb.

25. Qaysi tushunchalar ayniyat?

- A. —X. X. Niyoziy ma'rifatparvar adib.
- B. —Kun, tun.
- S. —Jasur, dovyurak.
- D. —O'zbekistondagi eng katta shahar. Toshkent.
- E. —YOzuvchi, qalamkash.

26. Qay tushunchalar o`zaro zid?

- A. —Organik kimyo. Noorganik kimyo.
- B. —Badiiy asar. Ilmiy asar.
- C. —Keng ko`cha. Tor ko`cha.
- D. —Oq qog`oz. Qora qog`oz.

27. Ushbu fikrlardan qay biri yetarli asosga ega?

- A. — Darsga yaxshi qatnashmagan talaba baho ololmaydi.
- B. —Inson fikrlaydi, chunki u ongli mavjudot.
- C. —Vahor-seryog`in fasl.
- D. —Milliy mafkurasiz jamiyat yo`lini yo`qotadi.

28. «Hamma muallimlar ziyolilardir» hukmidan almashtirish yo`li bilan qay o`rinda to`g`ri xulosa chiqarilgan:

- A. —Ziyolilarning bir qismi muallimlardir.
- B. —Ziyolilar muallimlar hisoblanadi.
- C. —Muallimlarning bir qismi ziyolilardir.

29. Quyidagi misollar analogiya bo'yicha xulosa chiqarishga asos bo'ladimi?

- A. —Qush uyasida ko'rganini qiladi, farzand oilada.
- B. —Onasini ko'rib, qizini ol.
- C. —Mafkura tizim bo'lsa, g'oya o'zaq qismidir.

30. Quyidagilar ilmiy induktsiyaga misol bo'la oladimi?

- A. — Kitob-oftob.
- B. —Bulbul chamanni sevar, odam—Vatanni.
- C. —Suv—hayot.
- D. —Atom elektronlardan tuzilgan.
- E. — Tadbirkorlik-farovon hayot asosi.

31. Isbotlashning mantiqiy strukturasi qay o'rinda to'g'ri berilgan:

- A. —Tushuncha, hukm, isbotlash.
- B. —Isbotlash, argument, tezis.
- C. —Tezis, xulosa chiqarish, isbotlash.
- D. —Tezis, dalil, isbotlash.

32. Xulosa chiqarishning mantiqiy strukturasi qaysi o'rinda keltirilgan?

- A —Sub'ekt, predmet, bog'lovchi.
- B. —Katta asos, kichik asos, xulosa.
- C. —Katta asos, o'rta asos, xulosa.
- D. —Katta asos, xulosa, o'rta termin.

Sillogizm terminlari qay o'rinda to'g'ri sanab

ko`rsatilgan?

- A. —Katta termin, kichik termin, o`rta termin.
- B. —Katta termin, kichik termin, sillogizm.
- C. —Katta termin, o`rta termin, xulosa.
- D. —Sub`ekt, predikat, kichik asos.
- E. —Kichik asos, katta asos, asos.

33. Qo`shilgan tushunchalarni aniqlang:

- A. —Biomexanika.
- B. —SHahrixon.
- C. — G`ishtko`prik.
- D. —Biznesmen.
- E. —Nevropatolog.

34. Umumiy tushunchalarni toping:

- A. — Kitob.
- B. —Mustaqillik mafkurasi.
- C. —Ma`naviyat.
- D. —Tarixiy adabiyot.
- E. —Farg`ona viloyati.

35. Jamlanma tushunchani toping:

- A. —Adabiyot muzeyi.
- B. —Uyum.
- C. —Flot.
- D. —Mafkuraviy bo`shlik.
- E. — «Kamolot» yoshlar harakati.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOT:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasining Oily Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida 2010 –yil 12 –noyabr kuni so'zlangan nutq. – Toshkent, 2010.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. —Toshkent, «O`z-bekiston», 1998.
4. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. — «Fidokor». 2000 yil. 8 iyun.
5. Milliy istiqlol mafkurasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. —Toshkent, 2001.
6. Asmus V. F. Logika. —Moskva, 1947.
7. Gorskiy B.C. Logika. — M, 1978.
8. Getmanova L. G. Logika. Usbnik dlya pedvuzov. — Moskva, Prosveınenie. 1984.
9. Xayrullaev M.M. Haqberdiev M. Mantiq. —Toshkent, «O`zbekiston», 1994.
10. Rahimov I. Mantiqdan amaliy mashg`ulotlar va uslubiy tavsiyalar. —Toshkent, «Universitet», 1984.
11. Sharipov M, Fayzuxo`jayeva S. Mantiq. –Toshkent, 2005.
12. Qahhorov M.A. Logikadan ma`ruzalar va amaliy mashg`ulotlar — Qo`qon, 1993.
13. Qahhorov M.A. Mantiq. Muxtasar kurs. — Qo`qon, 2001.

MUNDARIJA

BET

I qism. MA'RUZA MATNLARNING QISQACHA BAYONI

1 — mavzu. Mantiq fanining predmeti va vazifalari.....	3
2—mavzu. Tushuncha.....	8
3—mavzu.Hukm.....	15
4—mavzu. To`g`ri fikrlashning asosiy qonunlari.....	10
5 —mavzu. Xulosa chiqarish.....	24
6—mavzu. Isbotlash va raddiya.....	22
7—mavzu. Gipoteza.....	34

II qism. MANTIQUIY MASHQLAR.

«Tushuncha» mavzusi bo`yicha.....	36
«Hukm» mavzusi bo`yicha.....	39
«Xulosa chiqarish» mavzusi bo`yicha.....	41

III qism. MANTIQ FANIDAN TESTLAR

Joriy nazorat uchun.....	45
Oraliq nazorat uchun.....	48
Yakuniy nazorat uchun.....	54